

Т. Ж. ЭНАЗАРОВ, Х. Т. АБДУЛЛАЕВ

ДИАЛЕКТОЛОГИК АМАЛИЁТ СЎРОҚЛИГИ

(“Диалектологик амалиёт” ўтказиш
учун ўқув кўлланма)

№ 28740	
Т. и. Еназаров	
Ўзбек тили ва адабиёти	
Ташкент 2018	
«Адабиёт ушундан»	


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
 OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI
 ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
 TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

T.J. ENAZAROV, X.T. ABDULLAYEV

**O'ZBEK FILOLOGIYASI
 FAKULTETI**

DIALEKTOLOGIK AMALIYOT SO'ROQLIGI

(«Dialektologik amaliyot» o'tkazish
 uchun o'quv qo'llanma)



Adabiyot uchqunlari
 Toshkent – 2018

UO'K 821.512-133-1
KBK 84(50')7
E-78

Bu o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 29.05.2017-yildagi 10-sonli majlisida muhokama qilingan va nashr tavsiya etilgan (29.05.2017-yildagi 10-sonli majlis bayonnomasidan ko'chirma).

Mas'ul muharrir:

Yo. Tojiyev – filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

B. Abdushukurov – filologiya fanlari doktori;

M. Abdurahmanova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu ishda malakaviy amaliyotlardan biri bo'lgan «Dialektologik amaliyot» ta'lim tizimidagi haqida ma'lumot berilib, uning dasturi berilgan. Unda sheva materiallarini qanday va qay tarzda yig'ib olish kerakli turli mavzudagi bir qancha savollar misolida ko'rsatilgan. Shu bilan birgalikda, shu amaliyotning kalendar rejasi to'g'risida ma'lumot berilgan, bu amaliyotning boshlanish va tugash vaqti borligi ta'kidlangan. Bu sohada oldin amalga oshirilgan ilmiy ishlardan farq qilgan holda bu ishda DLga kiradigan hamda kiritilmaydigan so'zlar, toponimlarni, xususan, tarixiy toponimlarni yig'ish haqida ham fikr-mulohazalar bildirilgan. U «O'zbek dialektologiyasi» fani va sohasining ilmiy-nazariy muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarlarga, shevalarimizni ilmiy-amaliy jihatlardan o'rganuvchi mutaxassis, tadqiqotchi va talabalarga mo'ljallangan.

KIRISH

Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozisityaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.

(Sh. Mirziyoyev)

O'zbekiston Respublikasi «Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqidagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 30-oktyabrdagi №305-sonli buyrug'ida ham malakaviy amaliyotlarning nazariy mavzularidan kam emasligi ta'kidlangan. Sababi, malakaviy amaliyotlar bo'lmasa, nazariya quruq yog'och bo'lib qoladi. Shuning uchun rejalashtirilgan malakaviy amaliyotlarning o'tkazilishiga DTSlari nuqtai nazaridan jiddiy e'tibor berish vaqti keldi. Ayni vaqtda mamlakatimiz oliy ta'limi tizimidagi filologiya, tarix, jurnalistika, geografiya, matematika kabi barcha fakultetlarda malakaviy amaliyot joriy qilingan.

Shuningdek, ushbu malakaviy amaliyotlarning maqsad va vazifalari e'tiborga olinsa, ularning soatlarini malakaviy amaliyotlari bo'lmagan boshqa kafedra o'qituvchilariga bo'lib berib bo'lmaydi. Sababi, bunday malakaviy amaliyotlarni shu sohada tajribasi bor bo'lgan maxsus mutaxassislarga ilmiy va amaliy asoslarda tashkil qilishib, amaliyotlar oxirida amaliyot materiallarini yig'ib, talqin hamda tahlillarini amalga oshirib, ularni yangidan to'plangan malakaviy amaliyotlarning materiallari sifatida ilmiy nashr(lar)ga tayyorlashlari mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda «Dialektologik amaliyot»ning o'tkazilishi vaqti, muddati, amaliyot talablari va ularning bajarilishi, amaliyot yakunida yoziladigan hisobotning rasman tayyorligi to'g'risida quyida batafsil to'xtalinadi.

Shevalarimiz adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbalardan biri. Ularning leksik birliklari bo'lgan dialektizmlarni o'rganish, yig'ish, ularni umumlashtirib, lug'at shakliga keltirish va ilmiy iste'molga tadbiq etish masalasi ancha bahslidir. Rus turkolog olimlari o'zbek xalq shevalarini XX asrning 20-yillaridan o'rganishni boshlashgan. Natijada, ulardan shevalarni tadqiq etishni o'rgangan, sheva so'zlarini farqlab, talqinu tahlil etishdan o'rnak olgan o'zbek olimlari ham XX asrning 50-yillaridan boshlab sheva va lahjalarimizni jiddiy ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslar o'rganishga kirishishgan.

Ammo «O'zbek shevashunosligi» masalalari ilgari surilgan bir paytda, ya'ni XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo'lgan davrdagi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar qattiy bir tartibda olib borilmagan, to'g'rirog'i, tadqiqotchilarning tashabbuslari asosidagi tadqiqot faoliyati vositasida, stixiyali tarzda olib borilgan. Bu haqidagi fikr-mulohazalar hozir birinchi marta aytilayotgani yo'q, balki bundan o'ttiz uch yil oldin ham o'zbek dialektologlaridan biri Do'stmurod Abdurahmonov tomonidan aytilib, maxsus ilmiy ishda ta'kidlangan¹. Hozirgacha mavjud lahjalarimiz hamda bir qancha shevalarimiz fonetik hamda morfologik jihatlaridan o'rganildi, ammo shevalarimiz dialektal leksika nuqtai nazaridan to'liq o'rganilgani yo'q. Shuningdek, o'rganilgan shevalarimizning dialektal materiallarida ham keyingi yillarda taraqqiyot tufayli ma'lum bir fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ro'y bergan bo'lishi tabiiy hol, ya'ni mavjud shevalarni yana bir boshdan o'rganish masalasi kun tartibida turib qoldi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

XX asrning 50-yillaridan bugungi kungacha o'tgan vaqt sal kam yetmish yilni tashkil etmoqda. «O'zbek shevashunosligi» sohasida faoliyat ko'rsatgan olimlardan Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, Fattoh Abdullaev, Abdug'ani Aliev, A'zam Shermatov, Bolta Jo'raev, X. Jo'raev, T. Almatov, S. Atamirzaeva, Sh. Afzalov, A.V. Baskakov, Nazar Rajabov, Mustaqim Mirzaev, Yu. Bobojonov, M. Bo'ronov, M. Valiev,

¹ Bu haqida maxsus maqola yozilgan, qarang: D. Abdurahmonov. O'zbek shevalari morfologiyasining o'rganilishi// O'zbek shevalari morfologiyasi. 248-271-betlar.

V.V. Reshetov, Shonazar Shoabdurahmonov, Xudoyberdi Doniyorov, Yusuf Jumanazarov, Ahmad Ishaev, Tohir Sodiqov, Shukur Nosirov, Do'stmurod Abdurahmonov, Yoqub G'ulomov, Karim Nazarov, Vahob Egamov, Mashkura Turopova, Lola Karimova, Qosimjon Muhammadjonov, Nigora Murodova, Abdumurod Mamatov, Aziz Jo'raev, M. Begaliev, X. Jo'raev, Bosim To'ychiev kabi dialektolog olimlarning shevalarimizni o'rganish bo'yicha o'zlarining ilmiy tadqiqotlariga mos holda tuzilgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangan maxsus so'roqliklari bo'lgan. Ammo ularning so'roqliklarini bugungi kunda bir butun holda ishlatib bo'lmasligi ham tabiiy holligini inobatga olib, biz «Dialektologik amaliyot so'roqligi»ni tuzdik va yuqorida tilga olingan ustozlarning bu sohadagi asarlaridan olingan ba'zi bir fikrlarini ham ushbu ishimizga kiritdik.

Ma'lum bir vaqt o'tishi bilan boshqa tillarda bo'lgani kabi tilimizning fonetikasi va leksikasida kam bo'lsa-da, o'zgarishlar yuzaga keladi. Agarda tildagi fonetik hamda leksik o'zgarishlar eng avvalo uning shevalarida o'z ifodasini topishi mumkinligini o'ylasak, lahja hamda shevalarimizning mustaqillik sharoitida XX asrning oxiri va XXI asrning boshidagi holatini yana bir boshdan o'rganish zarurligi sezilib turibdi. Bu esa mamlakatimizning mustaqillik davridagi shevalarimizni o'rganib, yangi-yangi tadqiqotlar olib boruvchi dialektologlarni ham nazariy, ham amaliy jihatlaridan zarur ko'nikmalarni singdirish lozimligini anglatadi. Mazkur o'quv qo'llanma esa yuqorida eslatilgan yangi dialektolog olimlarni shakllantirishda amaliy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilmoqda. Shuningdek, haligacha shevalarimiz materiallari asosida 1971-yilda nashr etilgan «O'zbek xalq shevalari lug'ati»dan boshqa biron bir lug'at nashr etilmagan. U ham bor-yo'g'i 9,5 (to'qqiz yarim ming)ta dialektal so'zdangina iborat lug'at. Uning ham yarmi f.f.n., katta ilmiy xodim Ahmad Ishaev tomonidan to'plangan «Qarindosh-urug' nomlari»ni bildiruvchi so'zlardir.

«O'zbek dialektologiyasi» fanini o'qitish jarayonida ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlar bilan birga bir oyga mo'ljallangan dialektologik amaliyotni asosli ravishda qayta tik-

lashimiz kerak¹. Buning uchun moliya idoralari dialektologik amaliyot o'tkazish uchun talabalarga, ularning rahbari bo'lgan o'qituvchilarga yo'l haqi, kunlik va kvartira haqlarini bugungi narxnavodan kelib chiqib belgilash shart. Aks holda, qat'iy hisob-kitobli va maxsus hisobotli dialektologik amaliyotni tashkil etish qiyindir.

Albatta, «*Shevalarimizning lug'aviy boyligini saqlab qolish uchun nimalar qilyapmiz?*», «*Bo'lajak mutaxassislarni shevashunoslikka qanday jadb qilish kerak?*», «*Aslida bu sohada nimalar qilishimiz kerak edi?*», «*Nega O'zbek dialektologiyasi fani hali ham e'tibordan chetda?*» – degan savollar har bir kishini o'ylatadi.

Ayni vaqtda talabalar tugul olimlar ham negadiri umumiste'mol so'zlari bilan dialektal so'zlarni farqlashmaydigan holga kelib qolingan. Chunki shu kungacha dialektal so'z masalasi har tomonlama mukammal ochib berilmagan, e'tiborsizlikka yo'lga qo'yilgan. Aniqrog'i, Mustaqim Mirzayev, Do'stmurod Abdurahmonov, Ahmad Ishaev kabi olimlar bu masalada bir necha marta maqolalar yozishgan², ammo nashr vaqtida jiddiy o'zgartirilgan yoki nashr etilmasdan qoldirilgan. Shevalarimizdan dialektal matnlarga tayanilgan holda to'plangan dialektal so'zlarni farqlaydigan tamoyil, omil va usullarni ishlab chiqish uchun ham shevalar va lahjalarimiz to'liq o'rganilgan holda bunday so'zlarning anchagina jamlanmasi bo'lishi kerakligi ushbu qo'llanmaning yaratilishiga ilk turtki bo'ldi. Keyingi turtki esa bo'lajak filologlarimizni malakaviy amaliyotning bir turi bo'lgan «Dialektologik amaliyot»ga tayyorlash mas'ur«liyatidir.

¹ Shu o'rinda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori professor Shuhrat Sirjiddinov bilan shu (2017) yilning 29-mart kungi suhbatimizda yangi universitetda «Dialektologik amaliyot» hozircha mablag'siz tiklanganligini, 1-, 2-kurs talabalari yozdayoq dialektologik amaliyotni bajarish uchun topshiriqlar berib jo'natilishi va sentyabrda ularning hisobotlarining tayyorlanishi, dialektal materiallarning yig'ilish saviyasiga qarab, albatta, kelajakda bu amaliyotni mablag' bilan ta'minlash yo'llarini topish mumkinligini aytdilar.

² Bu holatlarni bilishimning sababi shuki, Til va adabiyot institutining «Dialektologiya» bo'limida bir muddat ishlab, u yerdagi bahsu munozaralarning ma'lum qismini ko'rish va eshitishga muvassar bo'lganman.

Shu o'rinda fikrimizni uzoqdan boshlamoqchimiz, ya'ni XX–XXI asrlardan oldin ham shevalarimiz o'rganilganiga dalil keltirmoqchimiz. G'azal mulkinging sultoni Alisher Navoiy (ya'ni «...avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni...» (I. Karimov))ning «Muhokamatu-l-lug'atayn» asaridagi «yig'lamoq» so'zining yuzta sinonimidan yarmidan ko'pi dialektal so'z ekanligini hisobga olsak, ham taniqli shoir, ham davlat arbobi bo'lgan bu insonning shevalarimizga XV asrdayoq e'tibor berib, uning duru javohirlarini tanlab-tanlab, o'z asarlarida qo'llay olganiga amin bo'lamiz. Shuning uchun ham «Tili-yu dili to'g'ri va haqgo'y bo'lgan odamning xato-yu nuqsoni kam bo'lur» (Zamaxshariy) degan fikrda sheva so'zlarini yig'ib olib qadrlashga da'vat ham, shu so'zlar bilan ona tilimizning boyligini oshirishga imkoniyat ham borligini anglab boramiz.

Dialektal so'zlarda shevaviylik nafaqat shaklda bilinadi, shu bilan birga ma'noda ham kuzatiladi. Shu sababli adabiy tilda qo'llanadigan bir qancha so'zlarning dialektal ma'nolari bor desak, xato qilmagan bo'lamiz. Quyidagi misollarga e'tibor bering: «*Afting qurisin*». «*Turqingga qara*». «*Basharanga odam qarab bo'lmaydi*». Ulardagi «*alt*», «*turq*», «*bashara*» so'zlari aslida adabiy tilda qo'llanadi, ammo sheva vakillari ulardagi dialektal ma'nolarni farqlagan holda yuqoridagi tarzda qo'llay olishgan. Quyidagi misralardagi so'zlarni birlashtiruvchi asosiy ma'no bilan birga yordamchi ma'no sifatida ulardan ba'zilarining dialektal ma'no(lar)i borligini unutmash kerak:

SO'ZLARIM...

*Sabotimning sir sinoatida sarxil sadog'im,
Sinovlarda sodiq sabotim — sevimli sabog'im.
Sara sahifasida so'zlash suyuk salohiyatdir,
Saf-saf saboqlarimda savodim serhosiyatdir.*

*So'zki, solihligi serishva, sargashta, sarishta,
So'zki, sodiq sahovatli sarbonim — sof sarjig'a.
So'zlar sodiq safdoshlarim — sarnomam, saromad,
Serzavq solnomam — sarsabil, sarhushdoshim sarhad.*

*So'zki, serjilvayu sarmastu sarsonu sargardon,
So'zim serjilo, serma'no — sobit sarviravon
So'zki, solihligi serishva, sargashta, sarishta,
So'zki, sodiq sahovatli sarbonim — sof sarjig'a*
(Tolib Enazarov).

Shuning uchun ham bejizga «*Sen odam tanlamagin, so'z tanla. Topib aytilgan so'z dushmani ham do'stga aylantira oladi. So'zing og'zing to'la javohiringdir. Dunyoda so'zing yoqimli bo'lsin*» (Tursunoy Sodiqova) deyilmagan bo'lsa kerak. Demak, sheva vakillari so'zlarga dialektal ma'nolarni ham yuklagani kabi so'zlaydigan so'zlarimiz yoqimli bo'lishi uchun, albatta, shevalarimizning o'rganilmay yotgan so'zlarini birma-bir o'rganib chiqishimiz shartdir.

Odatda, dialektizmlar bir necha xil bo'lishini e'tiborga olib, turli dialektal lug'atlar tuzish uchun mukammal ko'rsatmali (dialektal leksikografik) qo'llanmalar tayyorlashni amalga oshirish lozim. Ahmad Ishaevning xuddi shu nomdagi monografiyasi bor¹. Chunki dialektal lug'atlar tuzish uchun mukammal ko'rsatmali qo'llanmalarsiz tayyorlangan lug'atlar qo'lyozma darajasidagina ahamiyatli hisoblanadi. Ular uchun mukammal ko'rsatmali qo'llanmalar tayyorlansa, bunday dialektal lug'atlarni turli mavzularda yaratish ham mumkin.

So'zsiz, DL tuzish uchun shevalarimizdan maxsus so'roqlik yoki savolnoma asosida yig'ilgan dialektal materiallar kerak, ammo shevalarimizni o'rganmasdan tayyorlangan lug'at va so'zliklardan ehtiyot bo'lish shart. Sababi, bugungacha shevalarimizni o'rganish hamda ilmiy tadqiq qilish metodlari; shevalarimizni tadqiq etish metodikasi; lahja va shevalarimizni ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslardagi tadqiqining metodologiyasi kabi dolzarb masalalariga e'tibor juda kam bo'lgan.

Shu o'rinda «Shevalarimizdan maxsus so'roqlik asosida yozilgan dialektal matnlar asosida yig'ilgan dialektizmlar faqat dialektal lug'at qilinadimi?», degan savoliga javob berish kerak bo'ladi. To'plangan dialektal so'zlardan faqat dialektal lug'at tuziladi, deyish

¹ Bu haqida qarang: Ishayev A. O'zbek dialektalleksikografiyasi. — T.: Fan, 1990.

bizningcha, sal noaniqroq ko'rinishga egadir. Chunki yig'ib, to'planib, tavsif va tahlil etilgan dialektizmlar dialektal lug'atlarning quyidagi turlarini yaratishga asos bo'ladi deyish eng to'g'ri javob sanadi. Ular quyidagilar¹:

1. Sof dialektal lug'at (bu ko'p tomli lug'at bo'ladi).
2. Morfologik dialektal lug'at.
3. Morfologik dialektal o'quv lug'ati.
4. Leksik-derivatsion dialektalizmlar lug'ati.
5. Leksik-derivatsion dialektalizmlarning o'quv lug'ati.
6. Leksik-fonetik dialektal lug'at.
7. Leksik-fonetik dialektal o'quv lug'ati.
8. Dialektal frazeologik lug'at.
9. Dialektal frazeologizmlarning o'quv lug'ati.
10. Leksik-semantik dialektal lug'at.
11. Leksik-semantik dialektal o'quv lug'ati.
12. Etnografik dialektal lug'at.
13. Etnografik dialektal o'quv lug'ati.
14. Chappa dialektal lug'at.
15. Chappa dialektal o'quv lug'ati.
16. Dialektal sinonimlar lug'ati.
17. Dialektal sinonimlarning o'quv lug'ati.
18. Dialektal omonimlar lug'ati.
19. Dialektal omonimlarning o'quv lug'ati.
20. Dialektal antonimlar lug'ati.
21. Dialektal antonimlarning o'quv lug'ati.
22. Dialektal paronimlar lug'ati.
23. Dialektal paronimlarning o'quv lug'ati.
24. Dialektal laqablar lug'ati.
25. Dialektal laqablarning o'quv lug'ati.
26. Badiiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
27. Badiiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.

¹ Berilgan lug'atlarning ko'p qismini mavjud dialektal materiallar bilan tuzsa bo'ladi, ba'zilarini esa o'zbek xalq shevalari to'liq o'rganilgandan keyingina tuzish mumkin. Shuning uchun bu yerda lug'atlarning to'liq miqdorini keltirdik. Ushbu, ularning miqdori yana ortishi ham mumkin.

28. Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.

29. Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
30. Tarixiy asarlardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
31. Tarixiy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
32. Dramatik asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
33. She'riy asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
34. Prozaik asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
35. Folklor asarlardagi dialektizmlar lug'ati.
36. Maxsus dialektizmlarning (toponimik) o'quv lug'at¹.
37. Maxsus dialektal (toponimik) lug'at.
38. Maxsus dialektal (antroponimik) lug'at.
39. Maxsus dialektizmlarning (antroponimik) o'quv lug'ati.
40. Dialektal maqollarning o'quv lug'ati.
41. Dialektal maqollar lug'ati.
42. Dialektal qarg'ishlar lug'ati.
43. Dialektal tez aytishuvlarning o'quv lug'ati.
44. Dialektal tez aytishuvlar lug'ati.
45. Zoonimlarning o'quv dialektal lug'ati.
46. Zoonimlarning dialektal lug'ati.
47. Ortotonim(qush nom)larning o'quv dialektal lug'ati.
48. Ortotonim(qush nom)larning dialektal lug'ati.
49. Fitonimlarning dialektal o'quv lug'ati.
50. Fitonimlarning dialektal lug'ati.
51. Dialektal qo'shimchalarning o'quv lug'ati.
52. Dialektal qo'shimchalarning lug'ati.
53. Dialektizmlarning etimologik lug'ati.
54. Dialektizmlarning etimologik o'quv lug'ati.
55. Xalq dostonlaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
56. Xalq dostonlaridagi dialektizmlar lug'ati.

¹ Dialektologik lug'atlar sirasiga onomastikaga bag'ishlangan lug'atlar ham kiradi, chunki nomlarni xalq vakillari ishlatadi. Bu esa nomshunoslikka oid materiallarning ham dialektologik materiallar jumlasiga kiritish to'g'ri ekanligini ko'rsatadi: Qarang: Begmatov E., Uluqov N. O'zbekonomastikasi terminlarining izohli lug'ati. N., 2006. 103 b. E. Begmatov. O'zbekismlari. 14600 ismlar izohi. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 606 b.

57. Xalq maqollaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
58. Xalq allalaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
59. Xalq allalaridagi dialektizmlar lug'ati.
60. Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
61. Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlar lug'ati.
62. Xalq ertaklaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
63. Xalq ertaklaridagi dialektizmlar lug'ati.
64. Xalq lirik asarlaridagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
65. Xalq lirik asarlaridagi dialektizmlar lug'ati.
66. Askiyalardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
67. Askiyalardagi dialektizmlar lug'ati.
68. Loflardagi dialektizmlarning o'quv lug'ati.
69. Loflardagi dialektizmlar lug'ati.

Va yana bir necha tomdan iborat o'zbek xalq shevalarining dialektologik atlaslarini yaratish:

1. O'zbek shevalarining o'quv dialektologik atlaslari.
2. O'zbek shevalarining dialektologik atlaslari.
3. O'zbek shevalarining mukammal dialektologik atlaslari.

Har bir davrning me'yor va tamoyillari, ya'ni o'z talablari ham bo'lgani singari shevalarimizni o'rganish jarayonida ham o'ziga xos me'yor va tamoyillar mavjudligini hisobga olish lozim bo'ladi. Shunday talablardan biri shevalarimizni tadqiq etuvchi tajribali va bilimli filolog mutaxassislarini tayyorlab yetishtirish bo'lsa, ikkinchisi esa sheva materiallarini yozishga oid bo'lgan transkripsiyaning aniqlanishini hisoblanadi. Quyida shevalarimizning dialektal jihatdan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan leksik, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlar saqlangan sheva materiallarini yig'ish so'roqligini bayon qilamiz. Biroq unda ba'zi bir kamchiliklar uchun, buning uchun oldindan uzr so'raymiz.

Shu o'rinda bir asosiy fikrni ta'kidlashni istardik. Sheva materiallarini «Dialektologik amaliyot so'roqligi» asosida yig'ish ham ilmiy ijodning, ya'ni ilmiy ishning boshlanishi desak, xato bo'lmaydi. Zarur materiallarni yig'ish, jamlash, to'plash asosida ilmiy tahlilga kirishish ilmiy konsepsiya hamda ilmiy bashoratning ishonarli boshlanishidir. Zero, «Ilmiy bashorat bu – o'tmish va bugunning noma'lum hodisalari, shuningdek, mashhur nazariyalar (Masalan,

shevalarimizning lingvogeografik tadqiqi — *ta'kid bizniki*), qonunlar, gipotezalar asosidagi xulosa sifatida ilgari suriladigan kelajak hodisalariga nisbatan ular haqidagi taxminlardir»¹. Ushbu amaliyotga borgan talabalardan kelajakda zahmatkash olim va serqirra ijodkorlar etishib chiqadi. Shu sababli ham «... olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Chunki ma'naviy boyliklarini aynan shular yaratadi»². Talabalarimiz ertaga «Ma'lumki, inson o'z ijodiy izlanishlari asosida dunyoni (ilmda esa boshqa tadqiqotlar bilan birga dialektal tadqiqotlarning ham mazmun va mohiyatini tushunib, amalga oshiradi — *ta'kid bizniki*) o'zgartiradi va o'zini yaratuvchi, ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi»³.

Xuddi shu ma'noda dialektal so'zlarni yig'ish jarayoni ham ilmiy ish, ilmiy bashorat va ilmiy tadqiqot metodologiyasiga kirib borishning sermashaqqatli ilmiy ijod yo'lining boshlanishidir. Bunday ilmiy ijod yo'liga kirish uchun malakaviy amaliyotlarga chiqqan talabalarga muvaffaqiyatlar tilab, ushbu o'quv qo'llanmani tayyorladik. Albatta, har bir ish oldingilaridan usul, omil, maqsad va vazifalari bilan farq qilib turadi. Buni zamonaviy fan talablari bilan aytganda oldin bu sohadaishlaganlarning yutuqlarini e'tirof etgan holda ularning kamchiliklarini yangi innovatsion g'oya va fikrlar bilan boyitishdir. Bizgacha ilmiy izlangan dialektologlar dialektal leksikani (qaysi darajada bo'lsa ham yig'ishlari) yaxshi, ammo ularni dialektal matnlarsiz yiqqanlari esa kamchilikli holatdir. Talabalarimizning malakaviy amaliyotda innovatsion harakatlari mohiyati dialektal so'zlarni sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar asosida dialektizmlarni yig'ish, to'plash, jamlash bilan ilmiy tahlilga kirishishdir. Natijada, bunday faoliyat bilan ham dialektal fond shakllangani kabi ko'p jildli dialektal lug'atlar uchun lug'at maqolalar ham shakllanadiki, bu «Dialektologik amaliyot» nomli malakaviy amaliyotning eng asosiy maqsadi sanaladi.

¹ Туленов К. Превидение и реальность. — Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998. 45 с.

² Каримов И.А. Юсак маънавият — энгилмас куч. — Тошкент, Маънавият, 2008. 79-6.

³ Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Тошкент, Фан ва технологиялар, 2014. 3-бет.

Ushbu maqsad yo'lida talabalarimiz amaliyotda o'zlari to'plagan sheva materiallari bilan hissa qo'shishlari aniq. Ta'kidlash kerakki, ilm, ilmiy kuzatish va malakaviy amaliyot ham o'z holda ijod hisoblanadi. Shuning uchun ham lahja va shevalarimizdan dialektal materiallar yig'ishning namunasini o'zimiz tuzgan hamda bir necha yillar davomida amaliy jihatdan sinab ko'rilgan «Dialektologik amaliyot» nomli malakaviy amaliyotning dasturi asosida ko'rsatishni o'rinli bilamiz. Quyida unga alohida to'xtalindi.

«O'zbek dialektologiyasi» fanidan o'tkaziladigan «Dialektologik amaliyot» nomli malakaviy amaliyotning dasturi

KIRISH

Amaliyotning mazmuni. Bilamizki, fan(lar)dagi nazariy fikrlar amaliy jarayonlarda, xususan, malakaviy amaliyotlar davrida o'z isbotini topadi. Shuning uchun o'quv jarayonini nazariy bosqichi va amaliy bosqichi haqida gapirish o'rinli holdir. Mana shu ikki jarayonni ta'lim olish jarayonida bilgan, ko'rib tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar ertaga iste'dodli mutaxassislar darajasiga ko'tarilishi shubhasiz. Shuning uchun ham O'zR prezidenti Sh. Mirziyoev «*Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hyech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz*», deb bekorga aytmagan¹.

O'tilayotgan fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular yuzasidan malakaviy amaliyotni o'rinli tashkil etish mumkin bo'ladi. Shu sababli bugungi kunda mustaqillik mafkurasining ulablari kelib chiqqan holda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham nazariy, ham amaliy jarayonlarning uzviyligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Mazkur malakaviy amaliyotga «__» hafta yoki «__» soatlik vaqt ajratilgan.

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O'zbekiston, 2016. 14-bet.

Mazkur amaliyotning maqsadi – talabalarimiz ongiga o‘zbek shevalarining o‘ziga xos jihatlari singdirish va sheva materiallarini amalda ko‘rish, his qilish va yozib olish asosida dialektal so‘zlarning turli guruhlarini yig‘ib olish, DLni tuzish (DL – dialektal lug‘at ma’nosini anglatadigan qisqartma so‘z).

Mana shu maqsaddan kelib chiqqan holda «Dialektologik amaliyot»ning quyidagi vazifalari bor:

1. Talabalarga o‘rganilayotgan sheva vakillari bilan shevani o‘rganish uchun maxsus tuzilgan savollar majmuyi asosida suhbatlashishning malaka va ko‘nikmasini berish.

2. Talabalar sheva vakillarining nutqini yozib olib, transkripsiyada qayta yozish malakasini shakllantirish va kuchaytirish. Bunda avval dialektal matnlarni yozib olish shart. Shu asosda dialektizmlarni aniqlash to‘g‘ri va o‘rinli jarayondir.

3. O‘rganilayotgan (har bir) shevaning alohida xususiyatlari borligini amalda tushuntirish, singdirish.

4. Tadqiq etilayotgan (har bir) shevaning fonetik xususiyatlarini sheva materiallari asosida asoslash.

5. O‘rganilayotgan (har bir) shevaning leksik-semantik xususiyatlarini sheva materiallari asosida ko‘rsatish.

6. Shevaning leksik xususiyatlariga tegishli misollar vositasida kichik hajmli shevalarning ko‘p tomli lug‘atiga materiallarni yig‘ish.

7. Tadqiq etilayotgan (har bir) shevaning so‘z yasashiga xos xususiyatlarini sheva materiallari asosida dalillash.

8. O‘rganilayotgan (har bir) shevaning so‘z yasashiga tegishli dialektal misollarni to‘plash.

9. Tadqiq etilayotgan (har bir) shevaning morfologik xususiyatlarini sheva materiallari asosida bayon etish.

10. Shevaning sintaktik xususiyatlarini sheva materiallari asosida dalillab ko‘rsatish.

11. Sheva vakillari nutqida qo‘llangan ko‘p so‘zlarning adabiy tilda qo‘llanmasligini sheva so‘zliklari (dialektizmlar) asosida asoslash.

12. Bir shevani ikkinchi bir sheva bilan qiyoslab o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lish.

13. O‘rganilayotgan shevada oldin bo‘lmagan, ammo ayni vaqtda (agar bo‘lsa) xos bo‘lgan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni talqin etish uchun dialektal materiallarni to‘plash.

14. Shevalar milliy tilimizning asosi ekanligini talabalar tushunishi hamda ular ko‘nglida shevalarga nisbatan hurmat hisini kuchaytirish.

«Dialektologik amaliyot»da yozilgan materiallar har bir talabaning «Dialektologik amaliyot daftari»da transkripsiya bilan qayd etilib, sharhlanishi va «Dialektologik fond»ga topshirishlari shart. Shundaygina dialektologik amaliyotni baholash o‘rinli bo‘ladi.

O‘ZBEK SHEVA VA LAHJALARIGA OID MATERIALLARNI AMALIY O‘RGANISH VA TO‘PLASH

O‘zbek tiliga Davlat tili huquqini bergan Qonunning 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilinishi, mamlakatimizning 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishishi boshqa soha vakillari kabi tashkilotlar oldiga ham bir qancha vazifalarni qo‘ydi. Shunday vazifalardan biri shevalarimizning fonetik, fonologik, leksik va grammatik xususiyatlarini mukammal tarzda o‘rganib, ko‘p tomli shevalar lug‘atini tayyorlash, nashr etish, ma’lum bir dialektal so‘zlarni ehtiyoj va imkoniyatdan kelib chiqqan holda adabiy til gathiga singdirish ishlarini olib borish uchun ta’lim-tarbiya ishlariga jiddiy e’tibor qaratish lozimligidir.

Talabalar o‘z shevasi materiallarini o‘rganish maqsadida shu sheva vakillarini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzularda so‘z ochish uchun aytilgan gaplarni transkripsiya va oddiy konspekt yozuvda yozib olishni o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. Buning uchun oldin o‘z kursdoshlarining nutqini yozib olishni mashq qilib ko‘rish shart. Sheva vakillari nutqini yozish olish mashqlari yaxshi o‘tsa, keyin quyidagi mavzularda suhbatlashish jarayonini tashkil etish kerak. Buning uchun ikki talaba sheva vakilini mavzuga oid fikrlashib, so‘zlashga da’vat etadi, ikki yoki uchta talaba sheva vakillarining nutqini yozishni boshlashadi. Bunda birinchi talaba shevada gapirayotgan odamning uchta gapini yozib olsa, keyingi talaba

4-, 5-, 6-gaplarni yozib oladi. 7-, 8-, 9-gaplarni esa birinchi talaba yozadi. Va shu tarzda sheva vakillarining aytilayotgan fikrlari birma-bir yozib olinadi. Sheva vakillari bilan o'tkazilgan suhbat quyidagi mavzularda uyushtirish mumkin:

1. O'rganilayotgan qishloq shevasi vakillarining qaysi o'zbek lahjasining guruhiga mansubligi.

2. Ushbu hudud tarixi, tarixiy toponimikasi to'g'risida ma'lumotlarni so'rash.

3. Hududning nomi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlash.

4. Sheva vakillarining o'ziga xos urf-odatlarini birma-bir yozib olish.

5. Qishloq vakillarining o'ziga xos qadriyatlarini matnlar vositasida yozib olib, izohlash.

6. O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqyealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko'rsatish.

7. Sheva vakillariga xos o'g'il bolalarning o'yinlari nomini yozish.

8. Qiz bolalarning o'yinlari nomini sheva vakillari nutqidan yozish.

9. Sheva vakillariga xos o'yinlarning nomlarini ko'rsatish.

10. O'rganilayotgan sheva vakillariga xos bo'lmagan o'yinlarning nomi qayd etish.

11. Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarining nomlarini yozish.

12. Xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd etish.

13. Aholi nutqida uchraydigan xalq qo'shiqlardan namunalarni yozish.

14. Sheva vakillari nutqida uchraydigan ertaklardan namunalarni yozib olish.

15. Aholi nutqida uchraydigan doston(lar)dan namunalarni yozish.

16. O'rganilayotgan sheva vakillari nutqida uchraydigan termalardan namunalarni yozib olish.

17. Tabiatdagi turli hodisalarni izohlashga harakat qilingan dialektal matnlarni yozish.

18. Dehqonchilik muammolarini sheva matnlari sifatida yozib olish.

19. Chorvachilik muammolarini sheva matnlari sifatida yozish.

20. Qishloq vakillari shug'ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar yig'ish.

21. Bu hududda yashovchilarning milliy va madaniy qadriyatlarini sanab, izohlash.

22. Hududdagi to'y-tomoshalar va ularni sheva vakillari qanday o'tkazilishini dialektal nutq namunasi asosida izohlash.

23. Shu kunning muhim voqyealariga sheva vakillarining munosabati.

24. Sheva vakil(lar)ining tarjimai holini so'rash va kasbini so'rash.

Va yana sheva vakillari nutqidan yozib olinadigan dialektal matnlarning mavzulari quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1) sheva vakillari (erkaklar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo'lishi o'rinli: «Ajdodlarimiz», «Adolat», «Avlodlarimiz», «Ajrallish(lar)», «Ayyorlik», «Bog'dorchilik», «Baliqchilik», «Baliq ovi», «Bolalarimiz», «Bo'g'doypoya», «Baliqli taomlar», «Bolalik», «Bog'lar», «Bozor», «Bozorlik», «Behurmatlilik», «Vaqt», «Vaqt qadri», «Vatanparvarlik», «Vatanim — faxrim», «Hunar», «Kiyim», «Kurash», «Ko'pkari», «Keksalik foydasi», «Kasbim», «Kiyinish odobi», «Kino», «Yaxshi insonlar», «Yaxshi insonlar», «Yaxshilik va yomonlik», «Gurung», «Go'zallik», «Gulzor», «Dasturxon», «Yigitlar ko'rki», «Yigitlik odobi», «Yigitlik sha'ni», «Odob», «Ona», «Onalar», «Omonlik», «Odat», «Odatlarim», «Oila», «Oilalar saodati», «Oila tashvishi», «Uy qurilishi», «Uyimiz», «Ustozlar», «Umr», «Umr daqiqalari», «Uylanish», «Zamondosh», «Zamonaviylik», «Zamonning qadri», «Qishloq hangomalari», «Qarilik», «Qishloq odamlari», «Qizlar odobi», «Qadriyatlar», «Qishloq kengliklari», «Nevara», «Non qadri», «Dam olish», «Dam olish oqshomi», «Jo'ralar», «Do'stlar»,

Sheva vakillarini ma'lum mavzular asosida gapirтириб, шу gapirтириларини транскрипция қилиш ва ундан кейингина диалектал матнлардаги диалектал лексика тўғрисида фикр юритиш уринли бўлади. Бундай иш олдин қилинмаганлиги учун XX асрнинг 60–70-йилларида таърифланиб нашр этилган «Ўзбек халқ шевалари луғати»да (Т., 1971) sheva сўзлари жуда камдир.

28746
AXBOROT-RESURS MARKAZI

«Do'stlik», «Suhbat», «Sen va siz», «Sadoqat», «Sinfdo'shlar», «Xotira kuni», «Xotiralarim», «Xasislik», «Hurmat», «Hurmat qilish», «Chorvachilik», «To'y-tantana», «Tarix», «Tegirmon», «Taomlar», «Tog'», «Ta'lim», «Radio», «Razolat», «Rahmdillik», «Rahmat», «Mehri», «Mevalar», «Mehribonlik», «Mehribonlik uyi», «Matbuot», «Motam», «Motam marosimi», «Muruvvat», «Mustaqillik», «O'zbekiston ulug' diyor», «O'zbekona ruh», «O'lkam», «Erkaklar e'tibori», «Erkaklar e'tirofi», «O'qish mashaqqati» va boshqalar;

2) sheva vakillari (onaxonlar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo'lishi ma'qul: «Ayollar odobi», «Ayol baxti», «Ayollar go'zalligi», «Ayollari gapi», «Ayollar o'tirishi», «Ayollar qarg'ishi», «Ayollar shijoati», «Ayollar qalbi», «Ayollar go'zalligi», «Onalar hurmati», «Onalar mehnati», «Onalar mehri», «Onalik mehri», «Ona(lar) matonati», «Ona saodati», «Onalar imkoniyati», «Onalar sog'inchi», «Onasi bor qiz», «Onasi bor yigit», «Onasi bor kelin», «Oila tashvishi», «Onalar go'zalligi», «Onalar didi», «Onalar tili», «Onalar e'tibori», «Onalar e'tirofi», «Onalar so'zi», «Onalar g'ami», «Onalar yuragi», «Onalar allasi», «Onalar ugiti», «Onalar dardi», «Onalar gapi», «Onalar ibratini», «Onalar tilagi», «Onalar duosi», «Ovqat pishirish usullari», «Ovqat turlari», «Go'zallik ayollar nigohida», «Mahmadona ayol», «Soddu qiz», «Soliha qiz», «To'y tashvishi», «Kiyim g'ami», «Onalar suhbatini ibrat maktabi», «Uy tozaligi», «Uy bezagi», «Xonadon charog'boni», «Mehri ko'zda», «Bolalarga talpinish», «Bolalar tashvishi», «Keksalik ibratini», «Kundosh», «Kundoshli uy», «Mehri kelin», «Mohir kelin», «Mahmadona kelin», «Mahoratli kelin», «Iymonli kelin», «Himmatli kelin», «Himmatli ona», «Himmatli ayol», «Erta turish hikmati», «Er bermoq – jon bermoq», «Qarisi borning parisi bor», «Qizi borning nozi bor», «Qizlar go'zalligi», «Qizlar odobi», «Qaynonali kelin», «Qaynotali kelin», «Qattiq qo'l ayol» va boshqalar.

Sheva vakillaridan dialektal so'zlar haqida ma'lumot olingandan so'ng axborotchilar to'g'risida ma'lumotlarni yozib olish kerak bo'ladi. Aks holda sheva vakillari beriladigan savollarga to'liq javob bermasligi mumkin. Sheva vakillari to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shartli ravishda pasport yoki ma'lumotnoma deyish

mumkin. Shunda sheva haqida ma'lumot beruvchining nomi ham to'plangan sheva materiallari kabi sanasi ko'rsatilgan holda saqlanadi, kitob va lug'atlarda ham berilishi mumkin bo'ladi. Bu esa sheva materiallariga va ular to'g'risida ma'lumot beruvchilarga jiddiy e'tibor berish shartligini ta'kidlab turadi. Masalan, sheva vakili to'g'risidagi ma'lumotnomaning tartib raqami, masalan, 1-ma'lumotnoma deb olinsa, unda quyidagilarning bo'lishi lozim:

1. Sheva vakili yashayotgan viloyat nomini yozish, uni izohlashga intilish.

2. Sheva vakili yashayotgan tuman nomini qayd etish hamda bu nomning tarixiy va bugungi kundagi ko'rinishlarini qayd etib, ma'nosini izohlash.

3. Sheva vakili yashayotgan qishloq kengashi nomi va u(lar) to'g'risida ma'lumotni yozib olish.

4. Sheva vakili yashayotgan qishloq, shahar yoxud posyolkasining nomini ham yozib ko'rsatish.

5. Sheva vakilining ismi-sharifi, agar bilsa, qaysi urug' va qabilaga mansubligini ham ko'rsatish o'rinli.

6. Sheva vakillarining tug'ilgan yillari aniq yoziladi.

7. Sheva vakilining ma'lumoti, qayerlarda o'qigani, ishlagani haqida ma'lumotlar keltirilishi uchun shu mavzuda matnlarni yozish shart.

8. Sheva vakilining qaysi yozuvlarni bilishini uning nutqidagi fikr-mulohazalari bilan talqin qilish.

9. Sheva vakili ishlamagan bo'lsa ham, ularning hunari, kasbi-korini bilish uchun savollar berish.

10. Sheva vakilining kasbi hamda ish joyini yozib olish.

11. Shevaga oid materiallarni yig'ib olgan shaxsning, ya'ni talabaning ismi-sharifi.

12. Sheva materiallari sheva vakillarining nutqidan talabalar tomonidan yozib olingan kun, oy va yil ham aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Bitta sheva vakilidan bir necha marta dialektal materiallarni so'rab olish mumkin. Shuning uchun undan olingan materiallarni talqinini asoslash uchun bitta pasport to'ldirilsa bo'ladi. Boshqa sheva vakillaridan material yozib olinganda esa, albatta, yangi

tartib raqamli ma'lumotnomani to'ldirilishi shart. Bunday pasport ma'lumot beruvchi sheva vakillari haqida alohida-alohida holda tayyorlanadi va undan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi. Ushbu dastur sakizta qismdan iborat bo'lib, quyida ular batafsil bayon etiladi.

SHEVA VAKIL(LAR)I BILAN SUHBATLASHILGANDA YOZIB OLINADIGAN TAXMINIY MAVZULAR VA ULARGA OID SAVOLLAR

Ikkinchi kursning oxirida talabalar o'z shevasi materiallarini o'rganish maqsadida shu sheva vakillarini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzulardan so'z ochishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Aholi punkt(lar)ida, ya'ni qishloq(lar)da yashovchilarning qaysi o'zbek urug'iga mansubligi.

2. Qishloq shevasi vakillari pishiradigan ovqat, non, shirinliklar haqida ma'lumotlar yig'ib, to'plash.

3. Ushbu hududning tarixi, tarixiy toponimiyasi to'g'risida ma'lumotlar yig'ish.

4. Hududning nomi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlab, tushuntirish.

5. Sheva vakillarining o'ziga xos urf-odatlarini imkoniyat darajasida to'liqroq yozib olish.

6. Qishloq shevasi vakillarining o'ziga xos qadriyatlari.

7. Tabiat hodisalarining izohini sheva vakillarining talqinida sheva matnlarida qayd etish.

8. Sheva vakillarining fikrlari asosida dehqonchilikka oid narsa va hodisalarning nomlarini yozib olib, mavjud izohlarini yozish.

9. O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu erlik aholi nutqi misolida izohlab ko'rsatish.

10. Sheva vakillariga xos o'g'il bolalar o'yinlari nomini yozib olish.

11. O'rganilayotgan sheva vakillariga xos qiz bolalar o'yinlari nomini yozib olish.

12. Sheva vakillari oldinlari o'ynashgan o'yinlarning nomini so'rab, qayd qilish.

13. Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarining nomini yozib oling.

14. Xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd etish.

15. Aholi nutqida uchrovchi xalq qo'shiqlari, ertak, doston va termalarni sheva vakillari ijrosida yozib olish kerak. Sababi, sheva vakillari aytgan matnlarda shu shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari nisbatan to'liq holda o'z ifodasini topadi.

16. Sheva vakillarining fikrlari asosida chorvachilikka oid narsa va hodisalarning nomlarini yozib olib, izohlash.

17. Sheva vakillarining fikrlari asosida bog'dorchilikka oid narsa va hodisalarning nomlarini yozib olish.

18. Qishloq shevasi vakillari shug'ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar yig'ish.

19. Bu hududda yashovchilarning tarixan shakllangan bayram va milliy qadriyatlarini sanab, izohlash.

20. Aholi punktidagi, ya'ni o'rganilayotgan hududdagi to'y-tomoshalar va ularning o'tkazilishini izohlashda dialektal matnlarga tayanilgan holda bayon etish.

21. Shu kunning muhim tarixiy voqealariga sheva vakillarining munosabati.

22. Sheva vakil(lar)ining tarjimai holini so'rash hamda kasbini so'rash.

Har bir olingan materialning pasportida quyidagilar aks etgan bo'lishi maqsadga muvofiq hisobalanadi: *sheva vakil(lar)ining ismi, familiyasi, sharifi; yoshi; kasbi; hunari; yashash joyi va dialektal matnni aytib turgan kun, oy, yil.*

Ayni vaqtda talabalar tugul olimlar ham negadir umumiste'mol so'zlari bilan dialektal so'zlarni farqlashmaydigan holga kelib qoldik desak, xato bo'lmaydi. Shuning uchun dialektal matnlar yozmasida dialektizmlarni yig'ish, ajratish, to'plash, talqin hamda tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

TRANSKRIPSIYA VA SHEVA MATERIALLARINI TRANSKRIPSIYADA YOZIB OLIISH KO'NIKMALARI TO'G'RISIDA

Talabalar «O'zbek dialektologiyasi» fanini o'rganish davomida ham nazariy ma'lumotlarni, ham amaliy ko'nikmalarni o'rganadi. Amaliy ko'nikmalarga sheva materiallarni ajrata bilish, shevaga oid matnlarni amaldagi transkripsiyada yozish ko'nikmalarini egallashadi. Ular butun amaliyot davomida material to'plash jarayonida transkripsion yozuv tizimidan foydalanadi. Shuning uchun o'quv rejasiga asosan tashkil etilayotgan dialektologik amaliyotga boradigan talabalar amaldagi transkripsiyada sheva vakillari nutqini tezroq yozib olishni yaxshi bilishlari shart bo'ladi. Shu o'rinda yangi transkripsiya haqida fikrlarimiz quyidagicha: Hozirgacha an'ana bo'lib kelayotgan rus alifbosiga asoslangan transkripsiyadan foydalanib turish kerak. Rus alifbosiga asoslangan transkripsiya yangi transkripsiyaga nisbatan ancha osondir. Chunki undagi bir qancha transkripsion belgilar lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida ham o'z ifodasini topgan. Demak, yangi transkripsiyani dialektologiya sohasining magistrarlari va tadqiqotchilar qo'llashlari mantiqiylikning o'rinli ekanligini tasdiqlaydi¹.

TRANSKRIPSIYA

Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko'rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan ma'lum belgilar tizimidir. Tildagi tovushlarni aniq ifodalash uchun

¹ O'zi bor-yo'g'i bir semestr o'qitiladigan ushbu fanni ancha murakkablashtirib, muammolar girdobiga qoldirganmiz. Shunday muammolardan biri "An'anaviy transkripsiyani ishlatamizmi yoki yangi transkripsiyani qo'llaymizmi?", degan savoldir. Shu o'rinda bir misolni keltirsak, matematika fakultetiga kirgan talabalarni avval qo'shish, olish vako'paytirish amallarini o'rgatilar ekan. Demak, transkripsiya masalasida bakalavriyat yo'nalishlari talabalariga nisbatan oson va qulay bo'lgani uchun rus alifbosiga asoslangan an'anaviy transkripsiya o'rgatsak, talabalarimiz shu transkripsiyavositidasheva materiallarini dialektal matnlar sifatidayozib olib o'rganishsa. Dialektologiya sohasining magistraturasiga kirganlarga va dialektologik tadqiqot olib borayotganlarga esa yangi transkripsiyada ishlashni o'rgatsak, o'rinli va maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

sizmat qiladigan yozuv — transkripsiya, lotincha *transcriptio* — qayta yozib oling deb ataladi.

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq iste'molidagi tradision alfavitdan o'rni bilan ma'lum bir o'zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi. Shuning uchun transkripsiyada belgilar soni o'ziga asos bo'lgan alfavitdagi harflar sonidan ko'p bo'ladi. Bugungi kunda dialektologiyaga oid bo'lgan tadqiqotlarda lotin hamda rus-krill alifbosi asosida qo'llanadigan transkripsiyalar ishlatilmoqda. Mazkur ishda rus-krill alifbosi asosidagi transkripsiyadan olimlar foydalanishmoqda.

Transkripsiya ikki turga bo'linadi:

1. Fonetik transkripsiya.
2. Fonologik transkripsiya.

Bizningcha, transkripsiyaning yana bir turi bor, u ham bo'lsa, sheva vakillari gapirib turganda yoziladigan transkripsiya, ya'ni konspekt shaklidagi transkripsiya hisoblanadi. Mana shunday transkripsiya bo'lmasa, yuqorida ko'rsatilgan transkripsiyani ham yozib bo'lmaydi.

Shu o'rinda yangi transkripsiya belgilari borligini ham aytib o'tish kerak. Bizningcha, yangi transkripsion belgilar bilan yozishni amaliyotga chiqqan talabalardan talab qilish bir tomondan to'g'ri, ikkinchi tomondan esa sal xatoroq holatdir. Rus alifbosi asosidagi va yana yangi o'zbek yozuvidagi transkripsion belgilar bilan yozish o'rindiroq. Yangi transkripsion belgilarni esa talaba shevashunoslik mutaxassisligini tanlaganda, shu soha, ya'ni folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kirganda, shu sohada ilmiy ishlar olib borganda yaxshilab o'rganib oladi va matnlarni yangi transkripsiyada qayd etishi o'rindiroqdir. Shu yerda bir misolga e'tibor qaratsak, buni ta'kidlashdan maqsadimiz, shunday holatga amal qilishga esa negadir ko'pchilik xohlamaydi — fiziklar ham, matematiklar ham birdaniga mukammal fizik qonuniyatlarni yoki mukammal matematik qonuniyatlar o'z talabalariga o'rgatishni pog'anaviy yo'lini tanlashgan. Bizlarning fanimiz ham ularning fanlaridan mukammallikka ko'ra past emas. Biz «O'zbek dialektologiyasi» sohasidagi bor bilganimizni bir joyga to'plab, talabalarimizga berganimiz uchunmi, ularni qisqa

muddatda o'zlashtirish talabalarimizga haqiqatan ham ancha murakkablikni keltirib chiqarayapti, ya'ngi talabalarimizning o'zlashtirishi qiyinlashib boryapti. Bu holni esa, ya'ni fanimizdan beriladigan ilmiy va amaliy materiallarimiz ancha murakkablashib qolganligini mana his qilib turibmiz. Qiziq holat, ikkinchi kursdagi materiallarni tadqiqotchilar ham qayta-qayta o'zlashtirayotganini ko'rganmiz. Demak, fanimizni materiallarini ikki yoki uch qism(fan)ga bo'lib berish maqsadga muvofiqdir.

Biz ham «O'zbek dialektologiyasi» fanini o'qitishda, transkripsion belgilardan foydalanishda mana shu pog'onaviylik yo'lidan borishimiz o'rinliroqdir. Shuning uchun bu yerda rus alifbosi va yangi o'zbek alifbosi asosidagi transkripsiyani berishni ma'qul ko'rdik.

Shevaning talaffuz xususiyatlarini saqlash uchun fonetik transkripsiyadan foydalaniladi. Bunda shevaga xos so'zlar transkripsiya vositasida to'liq yozib olinadi. Faqat (dialekt va shevalarga xos) alohida fonemalarnigina hisobga olish uchun ishlatiladigan transkripsiya fonologik transkripsiya deyiladi:

$v - v - lab - lab$ undosh.

$v' - v - lab - tish$ undoshi.

Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma'lum bir arab alifbosidagi yohud boshqa alifbodagi yodgorliklarni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv tizimini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv tizimi orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Transliteratsiya biror yozuv harflari bilan yozilgan matnni boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirish usulidir.

(arabcha matn → hozirgi yozuvda)

eski o'zbek yozuvi matni → hozirgi yozuvda)

lotin yozuvi matni → hoz. yozuvda).

FONETIK TRANSKRIPSIYA

Fanda, tilshunoslik sohasida yozuvning turlari har xil ko'rinishda bo'lishi aytilgan: amaliy yozuv, stenografiya, transkripsion yozuv va boshqalar.

Amaliy yozuvda tildagi tovushlarning asosiy ma'nosini ko'rsatamiz, lekin uning talaffuzdagi hamma xususiyatlarini ko'rsata olmaymiz.

ot so'zida «o (ɔ)» qisqa

olam so'zida esa «o (ɔ)» o uzun.

Transkripsiyada esa so'zning tovush tarkibini, har bir tovushning talaffuzdagi xususiyatlarini bilish mumkin bo'lgani qadar to'la, o'zidek berishga harakat qilinadi, ya'ni eshutilganidek yoziladi. Bu yozuv ilmiy maqsadda — biron shevaning til tomondan tekshirish uchun qo'llaniladi. Bunda o'sha shevaning fonetik xususiyatlari hisobga olinadi.

Transkripsiyada quyidagilarga jiddiy e'tibor beriladi:

1. Har bir tovush bir belgi bilan ko'rsatiladi, ya'ni adabiy tildagi kabi ikki tovushni bir belgi bilan ko'rsatish amalda qo'llanilmaydi. Masalan, *ya, yu, ya, yo*. Bu harflar adabiy tilda qo'llanadigan harflar, grafemalar hisoblanadi.

2. Bir belgi doim bir tovushni bildiradi. U adabiy tildagi kabi ikki belgi bir tovushni bildirmasligi kerak. Masalan: *ng (n)* kabi:

3. Turli diakritik belgilar (qo'shimcha belgilar) ham qo'llaniladi. Bunday belgilar asosan ostki va ustki belgilardir, lekin ba'zan o'rtada ham bo'ladi. Masalan: *olam, q, g', o, o', h* va boshqalar:

4. Unilarning yumshoqligini bildirish uchun ustiga ikki nuqta qo'yiladi. Masalan: *pəkənə, gəp* va boshqalar.

5. Undoshning yumshoqligini bildirish uchun yuqoridan uning o'ng tarafiga kichik belgi qo'yiladi. Masalan: *b'ir, k'im* va boshqalar.

6. Unlining ustidagi to'g'ri chiziq uzunlikni, botiq chiziq qisqalikni bildiradi. Agar bu belgilar bo'lmasa, unli, odatdagidek, mo'yoriy, o'rta holatda bo'ladi. Masalan: *k'm, d'm, s'm*:

7. Tovushlarning qattiqligi ham ko'rsatiladi. Masalan, *быqын, g'ocht* va boshqalar:

8. Tovushlarning so'z boshida tushishi ham beriladi. Masalan: *bolalo(r)*.

9. Tovushlarning so'z o'rtasida tushishi ham ko'rsatiladi.

10. Tovushlarning so'z oxirida tushishi ham qayd etiladi.

11. Urg'u ham odatdagidek, ko'rsatiladi: Masalan: sənəxt'm'z. Hozirgi alifbo (rus alifbosi asosida o'zbek yozuvi) asosida tuzilgan amaliy yozuvdagi belgilar transkripsiya uchun xizmat qiladi. O'zbek shevalariga xos bo'lgan tovushlarni ifodalash uchun qo'shimcha belgilar ishlatiladi.

UNLILAR

O'zbek shevalarni tekshirish uchun quyidagi unli tovushlar tizimidan foydalanish mumkin:

a, ɔ, i, o', '(i), u, o(ə), e.

a – til orqa, keng lablanmagan tovushni ko'rsatadi: qalam, bag'ir.

ə – «a»ning yumshoq varianti: gap, ana.

Ba'zi tekshiruvchilar bu harfni «ə» shakli bilan ham ko'rsatadilar: ənə, mənə.

ɔ – til orqa, keng, bir oz lablangan unlini bildiradi: ot(ɔt), soqol (sɔqɔl). Bu tovush, ayniqsa, Samarqand, Toshkent shevalari uchun xarakterli: ɔtə, n ɔn, yɔm ɔn va boshqalar. Ba'zan «ɔ» unlisi «o» tarzida ko'rsatiladi.

i – til oldi, lablanmagan, tor unli: bil, sakkiz, kirish.

o' – «i»ning qattiq varianti.

Til orqa, lablanmagan, tor unli bo'lib, ayniqsa, singlarmoniz-mli shevalar uchun xarakterli: qo'lo'q (qələq), g'o'jo'm (g'əjəm).

' – juda qisqa talaffuz qilinadigan, bir oz ochiq «i» tovushni bildiradi: keld', borinch. Bu «i» bilan «e» orasidagi ochiqlikka ega unli tovush.

u – til orqa, lablangan, tor unlini bildiradi: qush, tush, bulut.

o – o'rta kenglikdagi til orqa, lablanmagan unli (adabiy tilda «o'» shakli bilan ko'rsatiladi): qol (qo'l) g'ozza (g'o'za). Til oldi «u» unlisini ifodalash uchun «o» shaklidan foydalanish mumkin: gol, hol, koklam.

ə – oldingi qator lablangan o' unlisi.

e – bu unli so'z va bo'g'in o'rtasida keladigan «e» unlisini ifodalaydi: bel, kel, ter.

ɔ – turg'un, orqa qator indiferint ' unlisi.

o – oldingi qator lablangan o' unlisi.

o' – lablangan, indifferent tovush. (Indifferent tovush – farqlanuvchi tovush).

e – so'z va bo'g'in boshida keladigan unlini ifodalaydi. «yo» unlisiga nisbatan ancha til orqa tovushni bildiradi: egar, elak, duel.

Transkripsiyada «y»lashgan harflar(ni) quyidagicha ko'rsatiladi: *yu – yu: ya – ya, ye: e – e (ye, ye): yo – yɔ (yɔ).*

UNDOSHLAR

Transkripsiyada: *b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh* undoshlari o'zicha ishlatiladi. Qolgan undoshlar quyidagicha ishlatiladi:

v – lab-lab. Lab-tish «v» alohida tarzda ifodalanadi: w (w).

y – silliq talaffuz qilinadigan undosh.

g' – chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh.

g'' – chuqur til orqa, portlovchi undosh.

g – sayoz til orqa, portlovchi undosh.

g' – til orqa, sirg'aluvchi tovush.

j – ruscha «j»ga mos undosh.

dj – qorishiq undosh tovush.

q – chuqur til orqa, portlovchi undosh tovush.

k – sayoz til orqa, portlovchi undosh tovush.

k' – «k»dan ko'ra sayozroq yumshoq undosh tovush.

l – til orqa undosh

l' – til oldi yumshoq undosh.

ng – (n,) til orqa burun tovushi.

ng' – «ng» dan ko'ra sayozroq, yumshoq «ng» undoshi.

ng^k – «k» qo'llanilgan «ng» tovush.

f – lab-lab undosh tovushi. Lab-tish «f» ni alohida izohlash kerak.

ch_{sh} – qorishiq tovush.

x – chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh tovush.

x' – «x» dan sayozroq, sirg'aluvchi tovush.

q^x – chuqur til orqa qorishiq undosh tovush.

h – bo'g'iz tovushi.

., :, :: – unlining uzunligini ifodalaydigan belgilar.

x – birlashish hodisasini bildiradi.

> – o'tish hodisasi.

< – o'zgarish hodisasi.

// – belgisi tovushlarning almashishi, ikki faktning parallel qo'llanishini ifodalaydi.

/ va ` – belgilari taqqoslashni ko'rsatadi.

() – qavs – shart bo'lmagan, tushib qoladigan elementlarni ko'rsatadi.

[] – o'rta qavs – umumiy matndan transkripsiya qilingan so'zlarni ajartib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

SHEVALAR FONETIKASI BO'YICHA MISOLLAR TO'PLASH

Bilamizki, shevalarimizning fonetik xususiyatlari xilma-xil bo'lib, ularni majmui orqali o'zbek shevalari to'g'risida ma'lum tushunchaga ega bo'lish mumkin.

1. o – lashish va a – lashishning tarqalishi:

a) bir bo'g'inli o'zaklarda: ot//at, oz//az, bosh//bash kabi misollarni topish;

b) ikki bo'g'inli o'zaklarda: bola//bala, ota//ata, bozor//bozar//bazor//bazar singari misollarni aniqlash;

v) ko'p bo'g'inli so'zlarning keyingi bo'g'inlarida: qaldo'rg'och//qaldo'rg'ach, yaxsho'roq//yaxsho'raq kabi misollarni yig'ish.

2. Birinchi darajali cho'ziq unilarning mavjud yoki mavjud emasligi: at//a:d, yaz//ya:z, ot//o:t//o:d singari misollarni topish.

3. Ikkinchi darajali cho'ziqlik – ultra cho'ziqlik borligi: shahar//sha:r kabi misollarni aniqlash.

4. Singarmonizmning bor yoki yo'qligi, bo'lsa, lab garmoniyasi (singarmonizm) ning mavjud yoki mavjud emasligi misollarda ko'rsatish:

a) konglum//kongulum//kongilim//ko'ngl'm singari;

b) turuptu//turupt'//tur'pt' kabi;

v) ustudə//utidə//ustdə singari.

4.1. Tanglay singarmonizmiga misollar keltirish. Masalan, qashlacaq kabi.

5. Kontrast juft unilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi: /a o, u o', ' i, ' /. Masalan, bol/bol, qol/qol kabi.

6. Cho'ziq hamda qisqa unilarning mavjud yoki mavjud emasligi.

7. So'z boshida o'rta-tor va o'rta-keng unilarning diftonglashuvi /ie, uo, uo': a) ie – iechki//ieshki kabi;

b) u – uen // uen, uq'li singari;

v) uo' – uo'rdak // uo'rdek // uo'rday kabi.

8. So'z boshida dj/j/i hodisasining tarqalishi: /djoq-joq-yoq/, /djol-jol/yol/ singari.

9. Yumshoq va qattiq unilarning mavjudligi. Ular so'zlarni tarqlashda ishlatiladimi?

10. A//E mosligi uchraydimi? /ayol-ayol, abir-obro', majoz-mijoz, palenchi-palonchi/ kabi.

11. O'//E mosligi uchraydimi? /o'tuk-etik, o'chki-echki/ singari.

12. O' unlisi U unlisi bilan almashadimi?

13. E//U mosligi uchraydimi? /duvona-duvul/devul/ kabi.

14. Tursun, turg'un, kunduz, chumchu kabi so'zlardagi ikkinchi bo'g'indagi unli qanday talaffuz qilinadi?

15. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan so'zlarda U va A tovushlarining almashinishi uchraydimi?

16. I//I hodisasi uchraydimi? /ergash-irgash, endi-indi/ singari misollarni aniqlash.

17. E//U hodisasi mavjudmi? /devor-devul-duvul/ kabi.

18. U//O' hodisasi uchraydimi? /uy-o'y, kuylak-ko'yлак/ singari.

19. I//O', O hodisasi mavjudmi? /echki-o'chku-ochku, etik-o'tuk/ kabi.

20. So'z boshida i unlisining tushish hodisasiga misollarni keltirish.

21. X va H mavjudmi? /hamma-xamma, mehnat-mexnat/ kabilarga misollar topish.

22. F tovushining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash.

23. Tor unilardan so'ng til orqa undoshlarining mavjudligiga misol bering.
24. So'z boshida /k-g/ va /t-d/ hodisalarining mavjud.
25. /g'-v/ hodisasi: /tɔg'-tov, ɔg'iz-ɔviz/ kabilarga misollar keltirish.
26. /p-v/ hodisasi: /tɔp-tɔpaman-tɔvaman/ singari misollarni aniqlash.
27. /b-p/ hodisasi: /butun-putun/ kabi misollarni yozish.
28. /d-t/ hodisasi: /zavɔd-zavut, baland-balant/singari misollarni topish .
29. /b-m/ hodisasi: /burun-murun, bunday-munday/ kabi misollarni keltirish.
30. /y-g//g' hodisasi yoki /g-y/ hodisasi bormi? Misollar toping.
31. /k/q-y, g/g'-y/ hodisasiga misollar keltiring.
32. /ng-y/ hodisasiga misollar toping.
33. /t-ch/ hodisasi: /ch'sh-t'sh, chusht-tusht/ kabi holatlar-ga misollarni aniqlang.
34. /i-e/ hodisasi: /xil-xel, tig'-teg', mix-mex/ singarilarga misollarni keltiring.
35. Sheva so'zlarida /i-u/ hodisasi borligiga misollar keltiring.
36. /q/ning sirg'alish hodisasi: /aq-ak, ax-ox, ko'k-kok/singariga misol toping.
37. /q-g'/x/ hodisasi: /toqsan-toxsan, ch'qt'-ch'g'd', aq'-ag'/ kabilarga misollar keltiring.
38. /x-q/ hodisasi: /xotin-qat'n-xat'n/ singarilarga misol toping.
39. /k-v/ hodisasi: /ɔld'k-ɔlduv, kett'k-kettuv, tuzuk-tuzuv/ kabilarga misollarni aniqlang.
40. /k-y/ hodisasi: /terek-terey, bilek-biley/ singarilarga misollar keltiring.
41. So'z boshida /h/ tovushining orttirilishiga misollar bering.
42. /k-g/ hodisasi: /ekin-egin, ekip-egib/ singarilarga misollar toping.
43. So'zlarga egalik affiksi qo'shilganda /p-b/ hodisasining hosil bo'lishi: /qap-qap'-qap'm/ (qop) kabilarga misollar keltiring.

44. So'z oxirida tor unilardan keyin /q, k/ tovushlarining o'zgarishi: /sar'q-sar'-saru-saruv-saru:/ singarilarga misollar aniqlang.
45. To'liq progressiv assimiliyasiya hodisasining mavjud yoki mavjud emasligi hodisasi: /qo'shn'-qo'shsh', bizni-bizzi-b'z', tem'm'-tem'rr', kett'-kett'/ kabilarga har xil misollar bering.
46. To'liq regressiv assimilyasiyaning mavjud yoki mavjud emasligi hodisasi: /orn'm-onn'm, ɔtlɔs-ɔllɔs, bord'm-bodd'm/ singarilarga misollar keltiring.
47. /ld-ll/ tovushlarining o'zgarishiga misollar toping.
48. Metateza hodisasi: /dɔyre-daryo, aylency-aylanay/ singarilarga misollar aniqlang.
49. So'z orasida /n/ ortishi yoki ortmasligi: /ichidɔ-ichindɔ, tushidɔ-dushindɔ, qol'dɔ-qol'ndɔ/ kabi misollar keltiring.
50. So'z boshida /q-k/ hodisasiga namunalar keltiring.
51. /b-m/ hodisasi: /buni-muni, kɔsbi-kɔsmi/ kabilarga misollar bering.
52. /s-ch/ hodisasi: /soch-choch, soch'q-choch'q-chachoq-sechoq/ singarilarga misollar keltiring.
53. /v/ tovushining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho'ziqlikning vujudga kelishi hodisasi: /ovqɔt-o:qɔt, hovl'-ho:l'/ singarilarga misollarni bering.
54. Shevada qanday fonetik hodisalar uchraydi? Ularni birma-bir yozing va misollar keltiring.
55. /bm-pp//mm/ hodisasi: /boribman-borippɔn-borimmɔn/ kabi holat bormi?
56. So'z boshida /v, y/ hodisasi orttirilishi hodisasi uchraydimi?
57. So'z ichida /h/ tovushining tushirilishi hodisasi mavjudmi? Mavjud bo'lsa, misollar keltiring.
58. So'z oxirida /h/ tovushining tushirilishi hodisasi mavjudmi?
59. /g', q, k/ tovushlarining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho'ziqlikning vujudga kelish hodisasi uchraydimi?
60. /l-p/ hodisasi: /falɔnch'-pelɔnch', febr'ke-pebr'ke, fɔt'me-pɔt'me, ɔftɔb-ɔptɔb/ kabilar bormi?
61. /x-g'/ hodisasi: /xoroz-g'oroz, xotik-g'otik, xɔznɔ-g'aznɔ/ singariga duch kelinganmi?

62. /t-h/ hodisasi: /əhləs-ətləs, əhlə-xətlə/ kabilar uchraydimi?

63. Soʻz oʻzagida ayrim tovushlarning takror kelishi uchraydimi? /tepə-teppə, həqim-həqqim/ kabilarga misollar aniqlang.

64. Faqat shevada uchraydigan fonetik hodisalarga misollar keltiring.

65. Fonetik tuzilishi oʻzgarib ketgan dialektal soʻzlarga misollar keltiring. Keltiriladigan misollar qancha koʻp boʻlsa, shunchalik yaxshi.

SHEVALAR MORFOLOGIYASI BOʻYICHA MATERIALLAR TOʻPLASH

Shevalarning morfologiyasiga oid bu dastur soʻz turkumalari va morfologik kategoriyalar boʻyicha tuzildi. Keltirilgan savollarning har biriga 10 (oʻnta)dan misollarni javob sifatida yozishlari shart:

1. Qaratqich /-ning/ va tushum kelishigi /-ni/ affikslarining farqlanishi yoxud farqlanmasligiga misollar yozing.

2. Qaratqich kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud? /-ning, -nʻng, -dʻng, -ding, -tʻng, -ting, -dʻn, -tʻn/larga misollar keltiring.

3. Tushum kelishigi qoʻshimchasining variantlari /-ni, -nʻ, -dʻ, -tʻ, -ʻ, -i/ qaysi biri uchraydimi?

4. Joʻnalish(-ga) va oʻrin-payt(-da) kelishiklari affikslarining qoʻllanishi qanday?

5. Shevada qanday qoʻshma otlar uchraydi? Misollar bering.

6. Shevada turuk/duruk/dirik/tirik affikslari orqali ot yasaladimi? Boʻyinturuq, umulduruq, umildiriq, shumulturuq, papultiriq/ kabi.

7. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasining variantlari uchraydimi /-ning, -ding, -ting, -ling/?

8. Oʻrin-payt kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud?

9. Chiqish kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud?

10. Koʻplik affiksilarining qanday variantlari mavjud?

11. -lar yoki -la affikslari hurmat maʼnosida yakka shaxslarga nisbatan ham ishlatiladimi? /dədəmlə, əkəmlə/ kabi.

12. Shevada egalik affikslarining qanday variantlari mavjud? /mektebʻmʻz, mektepʻmʻz, mektapʻvuz, uyʻmʻz, oyʻvuz/ kabilar.

13. Shevada yopemle-yopemgʻle, yoyʻmle-yoyʻmgʻle, buvʻmle-buvʻmgʻle formalari mavjudmi?

14. «Koʻk» sifatining ortirma darajasining qanday variantlari uchraydi? /koʻm-koʻk, kom-kov, kum-kuv, kokmek/kabi.

15. -raq affiksining qanday variantlari mavjud? /-rak, -rakʻ, -rogʻ, -roʻ:, -lav, -tav/ kabi.

16. -gʻon, -ongʻch, -ok kabi sifat yasovchilari?

17. Tartib son yasovchi affikslarning qanday variantlari mavjud?

18. Birdan oʻngacha sonlar va oʻnlik, yuzlik, minglik sonlar qanday talaffuz etiladi? Sheva vakiliga sanatib yozib oling.

19. Shaxs va koʻrsatish olmoshlarining quyidagi koʻrinishlaridan qaysilari shevada ishlatiladi? Masalan: men-mən, sen-sən, u-ul-ol-vol, bʻz-bʻzlar-bʻzər-bʻzə, bu, shu, sho, oshə, shʻ, həylə-həyləho, ənə-ənʻ, mənə-mənʻ, mənə bu-mənvu-mənov-mʻnov, ana u-ənov kabilar.

20. Soʻroq olmoshlarining qanday variantlari shevangizda uchraydi? Misollaringizni gaplar tarkida berib, izohlab tushuntirishni amalga oshiring.

21. Joʻnalish kelishigidagi shaxs va koʻrsatish olmoshlarining ifodalanishi: /mengə-məngə-magʻan, senga-sangə-səngə-səgʻan/ kabi.

22. Chegara maʼnosini bildiruvchi affikslarning qanday variantlari bor? /-gachə, -kəchə, -qacha, -devur, -chovur, -chavur, -dong/ kabi.

23. Konkret-aniq hozirgi zamon feʼllarining ifodalanishi: -vot, -vut, -yap, -yəp, -ut, -op, -yatʻr, -djatʻr/ kabilar.

24. Shevada kelasi zamon feʼlining ifodalanishi: -djek, -djaq, -chek, -chaq, -ədʻgən, -adʻgan, -miz, -vuz, -vuzo: /bardjaqman, geldjekman, barchaq, borədʻgənmən, kelədʻgənmən, borəmʻz, borovuz, borovuze/ kabi.

25. Kelasi zamon feʼlining ketarmishman, ketarmishsan, ketarmish kabi formalari mavjudmi?

26. O'tgan zamon fe'llarining ifodalanishi: -dik, -duk, -duv, -dig /bɔrd'k, bɔrdug, bɔrduv, keldig/, -vuz, -vuze, -d'y'z, -m'sh, -gan, -kən, -miz /bɔrduvuz, bɔrduvuze, bɔr'm'sh, barg'amm'z, bɔruvkemm'z, bɔrd'm'z/ kabilar.

27. Shevada buyruq-istak maylining qanday variantlari mavjud? -g'al, -geli, -al, -el, -eyluk, 'lyluv: /baral', boreylik, boreyluv/ kabi.

28. -maqchi, -mɔxchi, -mɔqchi, -mɔ:chi, -mag'chi, -maxchi affikslari.

29. -gudek, -g'udek yordamida tuzilgan fe'l formalari mavjudmi?

30. Otvordi, yutvordi, ketvorduk, aytvur-etvur, sɔtvɔldi, ɔpqɔldi, ɔbɔraman, ɔpke-apke tipidagi qo'shma fe'llar uchraydimi?

31. Fe'ning orttirma daraja formalari (-t, -at, -it, -giz, -k'z, -q'z, -g'z, -gaz, -kaz, -qaz, -g'az, -i, -az, -tir, -dir, -ir).

32. Bor'b edi-baribed'-barivedi-boruvd' so'zlari.

33. -(a) r, -mas affikslari qatnashgan so'zlar qo'llanadimi? Misollar keltirib o'ting.

34. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarning sheva vakillarining nutqida uchrashiga misollar keltiring.

35. Sheva vakillari nutqida ravishdosh yasovchi qo'shimchalarning ishlatilishiga namunalar yozing.

36. O'rganilayotgan shevada munda, uyog'də, buyog'də, shuyog'də, b'yog'də, əg'də, bəg'də, əqqə, bəqqə, shəqqə, shəg'də, o'ttə, ottə, bo'ttə, sho'ttə, uyerdə, sherdə, shettə, uyon, buyon, shuyon, boz, bə, yənə, yənəbo, tag'n, tag'a, tag'ndə, song, son, sog'n, b'ryole kayubi ravishga oid so'zlar?

37. Fe'ning birgalik daraja formalari: bol'ler kel'shed', k'tob o'q'shed' kabi aytiladimi yoki bol'l'r keled'ler, k'tob oq'yd'ler formasida -sh, -ish affikslari olmasdan talaffuz qilinadimi?

38. To'liqsiz fe'ning quyidagi formalaridan qaysi biri ishlatiladi: edi (di), ekan (kan, akan), emish (emush, mush, mish)?

39. Bilan ko'makchisining tarqalishi: kim b'len, kim minan, k'm m'nen, kimmen, kummen kabilar.

40. Lekin ko'makchisining qanday dialektal variantlari uchraydi?

41. -m'//-mi//ma//mə//-nə so'roq yuklamalarining tarqalishini aniqlang: bərm//bərma//barna//keləd'm'//keləmə kabilarga misol yozing.

42. Adabiy tildagi so'z yasovchi affikslardan farq qiluvchi dialektal so'z yasovchi affikslar.

43. Tovushga taqlid so'zlarning qanday turlari mavjud?

44. Shevangizdagina uchraydigan turli qo'shimchalar haqida to'xtalng.

45. Shevadagina so'z yasovchi qo'shimchalarga misollar keltirib o'ting.

46. Morfologik tuzilishi juda jiddiy o'zgarib ketgan dialektal so'zlarga misollar keltiring va izohlang.

47. Shevangizdagi morfologik tuzilishi jiddiy o'zgarib ketgan dialektal so'zlarga misollar keltiring hamda sharhlang.

48. Morfologik tuzilishi sal o'zgarib ketgan dialektal so'zlarga misollar keltirib, tushuntiring.

49. Shevangizdagi morfologik tuzilishi o'zgarib ketgan dialektal so'zlarga misollar keltiring. Keltiriladigan misollar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi.

SHEVALAR LEKSIKACI BO'YICHA MATERIALLAR TO'PLASH

Talaba o'rganayotgan shevasi materiallari asosida quyidagi savollarning har biriga 10 (o'nta)dan misollarni javob sifatida yozishlari lozim:

1. Shevangizga xos tovush o'zgarishlariga uchragan so'zlarni yozing.
2. Shevada qanday emosional so'zlar mavjud?
3. Shevangizga oid 30 ta (bu miqdordan ko'p bo'lsa ham bo'ladi) maqtov so'zlarini yozing.
4. Shevangizga xos bo'lgan 30 ta (bu miqdordan ko'p bo'lsa ham bo'ladi) qarg'ish so'zlarini yozib oling.
5. Zid ma'noli (antonimlar) so'zlarni qayd eting.
6. Sheva vakillari nutqida uchraydigan omonimlarni to'liq yozib olishga harakat qiling.

7. Mazkur shevada uchragan sinonimlarni misollar bilan birma-bir yozib oling.

8. Sheva hududidagi joy nomlari – toponimlarni yozing va izohini, ma'nolarini so'rang.

9. Sheva hududida uchrovchi gidronimlar.

10. Sheva vakillari yashayotgan hududga xos tarixiy inshoot va binolarning, machitlarning nomlarini yozib, izohlang.

11. Sheva vakillari nutqiga xos qabriston nomlari.

12. Sheva mavjud bo'lgan hududda uchrovchi etnografik nomlar.

13. Shevada uchrovchi qarindosh-urug'chilik atamallari.

14. Sheva vakillari nutqidagi uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari.

15. Shevaga xos kuyov salomlar va ularga oid so'z va iboralar.

16. Shevaga oid kelin salomlar hamda ularga xos so'z va iboralar.

17. Shevadagi tez aytishlar va ularga so'z va iboralar.

18. Shevada qo'llanuvchi oziq-ovqat nomlari, ularga tegishli so'z va iboralarni qayd etish.

19. Shevada ishlatilayotgan kiyim-kechak nomlari, ularga oid so'z va iboralarni yozib olish.

20. Sheva vakillari nutqida qo'llanuvchi ish-qurollarining nomlari, ularga xos bo'lgan so'z va iboralarni yozish.

21. Shevada qo'llanuvchi zeb-ziynat, taqinchoqlarning nomlari ularga so'z va iboralarga misollar keltirish.

22. Shevada faol ishlatilayotgan parranda nomlari, ularga oid so'z va iboralarni ko'rsating.

23. Sheva vakillari asrovchi uy hayvonlari nomi, ularga xos bo'lgan so'z va iboralarni misollarda qayd qiling.

24. Shevada qo'llanuvchi yovvoyi hamda yirtqich hayvonlar, ularga oid bo'lgan so'z va iboralarni yozib chiqing.

25. Sheva vakillari ishlatadigan ovchilik va unga tegishli bo'lgan so'z va iboralarni bayon eting.

26. Sheva vakillari qo'llaydigan baliqchilik atamallari, ularga tegishli bo'lgan so'z va iboralarni yozib olish.

27. Sheva vakillari aloqador bo'lgan urug' va qabilalarning nomlari, ularga tegishli so'z va iboralarni ko'rsating.

28. Beshik to'yi bilan bog'liq so'zlarni misollarda qayd eting.

29. Sheva vakillari tomonidan aytiladigan materiallarning nomini qayd eting.

30. Aqiqqa to'ylari bilan bog'liq sheva so'zlarini yozing.

31. O'g'il to'yi bilan bog'liq iboralarni ko'rsatib, qayd qiling.

32. Aqiqqa to'ylari bilan bog'liq iboralarni ko'rsatib o'ting.

33. O'g'il to'yi bilan bog'liq so'zlarni ko'rsating.

34. Qiz to'yi bilan bog'liq iboralarni yozib oling.

35. Uy to'yi bilan bog'liq so'zlarni qayd eting.

36. Uy to'yi bilan bog'liq iboralarni matn ichida bering.

37. Qiz to'yi bilan bog'liq so'zlarni yozib chiqing.

38. /Zug'izg'yon, hekke, alashaqshaq /so'zlari bormi?

39. /Chug'urehuq, qyoreyeloq, yelyoq/ so'zlari uchraydimi?

40. Shevada /temene, juvold'z, yo'g'on igna/ so'zlari mavjudmi?

41. Satil, paqir, chelak so'zlarining qaysi biri qo'llanadi?

42. Palos vazifasini bajaruvchi qanday so'zlar shevada bor?

43. O'linga oid sheva so'z va ularni gaplar, marsiyalar bilan izohlang.

44. Shevada erkalash ma'nosini ifodalovchi so'zlar?

45. O'rganilayotgan shevadagi qarg'ish (haqorat)larni yozib oling.

46. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: /nervon, shot', zeng', norbon, / kabilar.

47. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: / ot'r, kel', so:q', / kabilar.

48. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: / goshenge, ch'm'ld'q, gosheyene, chimild'q, / kabilar.

49. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: / duxobe, baxmal, barq't / kabilar.

50. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: / chechvon, chashpant, ch'mmet, chim-met/ kabilar.

51. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qo'llanadi? Masalan: / nonpar, chek'ch/ kabilar.

52. «Shunday qilib» iborasining shevada boshqa varianti bormi?

53. Shevada «bo'yniga olmadi», «rad etdi», «munkir keldi» iboralarning qaysi biri ishlatiladi?

54. Shevada «dedi, didi, eytt', ett'» soʻzlari bormi?
55. Shevada «piyava shorva//shorba, qore shorve//qora shorva, p'yova, vag'lama» soʻzlaridan qay biri uchraydi va qanday ma'noda ishlatiladi?
56. Quyidagi iboralarning qaysi biri o'rganilayotgan shevaga xos?
- a) kuchuk tishladi yoki qopdi;
- b) sigir suzdi yoki shoxladi.
57. «Ch'royl', koh'l'k//kohlu, korkem, suluv» soʻzlari.
58. Tasdiq ma'nosini ifodalovchi «ha» soʻzini anglatadigan yana qanday soʻzlar shevada uchradi?
59. Adabiy tildagi «qidirmoq» soʻzining qanday variantlari mavjud?
60. «Suvda suzmoq» iborasi shevada qanday qo'llanadi?
61. Yil fasllari shevada qanday nomlanganligini ko'rsating?
62. Shevada hunarmandchilikka oid qanday atamalar bor?
63. Shevada «etik», «kalit», «childirma» soʻzlari bormi?
64. Shevada palovni suzadigan idish qanday ataladi?
65. Kir yuvadigan tog'oraning shevada qanday nomlari bor?
66. Shevada «arqon» soʻzining boshqa variantlari bormi?
67. Shevada qozonning qopg'og'i qanday nomlanadi?
68. Adabiy tildagi «g'isht» soʻzining qanday variantlari mavjud?
69. «Bolta, oybolta, tever//teber» soʻzlari?
70. Shevada «do'ppi» soʻzining boshqa variantlari bormi? Sheva vakillari qo'llaydigan pichoq turlarini yozing, ixohlang.
71. Adabiy tilda qo'llanuvchi «toza» soʻzi bu o'rganilayotgan shevada qo'llanadimi?
72. Shevada «yangi» soʻzining boshqa variantlari bormi?
73. «Marza, pol, taxta» soʻzlari shevada uchraydimi?
74. «Pushta, jo'yak, chel, tirgak» soʻzlari bo'lsa, misollarda ko'rsating.
75. «Tashlama, zaykash, zaxkash, solma, zovur//zavr» soʻzlari bormi?
76. Adabiy tildagi «sharshara» soʻzi.
77. «To'g'on» soʻzi shevada ham qo'llanadimi?
78. Uy hayvonlarini chaqiradigan soʻzlar shevada ishlatiladimi?

79. Uy hayvonlarini haydaydigan soʻzlar ham shevada bormi?
80. Shevada «echki, uloq» soʻzlarining yana qanday variantlari uchraydi?
81. Shevada erkaklar qo'llaydigan qo'pol soʻzlarni yozib oling.
82. Shevada ayollar qo'llaydigan qo'pol soʻzlarni yozib chiqing.
83. Shevada o'g'il bolalar qo'llaydigan qo'pol soʻzlarni qayd eting.
84. Shevada qizlar qo'llaydigan qo'pol soʻzlarni yozib oling.
85. Shevada momolar qo'llaydigan qarg'ishlarni yozib ko'rsating.
86. Shevada ayollar qo'llaydigan qarg'ishlarni yozib qayd qiling.
87. Shevada eshakning bolasini qanday soʻzlar bilan atashadi?
88. Adabiy tildagi «ari» soʻzining bu shevada variantlari mavjudmi?
89. Qo'y va echkilarga qiron keltiradigan yirtqich hayvon nomi?
90. Shevada «it, mushuk» soʻzlarining qanday variantlari bor?
91. Adabiy tildagi «chittak» soʻzining bu shevada variantlari bormi?
92. «Chumoli» soʻzi shevada qanday soʻzlar bilan ataladi?
93. Adabiy tildagi «ninachi» soʻzining bu shevada variantlari bormi? Misollar keltiring.
94. «Oshqovoq» soʻzi qanday shakllarda o'rganilayotgan shevada uchraydi?
95. «Or'k, g'ol'n, zordol'» soʻzlaridan qaysi biri shevaga xos?
96. Sheva vakillari izohlagan toponimlarni yozib olish.
97. «Yelp'z, p'd'ne//pidana, h'lve» soʻzlaridan qaysi biri shevaga xos? Misollar keltiring.
98. Shevada «murch va qalampir» soʻzlari uchraydimi?
99. Sheva vakillari aytgan mahalla nomlarini yozish.
100. Sheva vakillari tomonidan birma-bir izohlangan ovul nomlarini qayd qiling.
101. Adabiy tildagi «non» soʻzi shevangizda qanday tarzda ishlatiladi?
102. Sheva vakillari aytib turgan ko'cha nomlarini qayd eting.
103. Sheva vakillari izohlab o'tgan tuman nomlarini yozib oling.

104. «Rovech//ravoch, chukur» soʻzlaridan qaysi biri shevaga xos?
105. «Dovuchche, davuchcha, davcha, duvche, devcho, gʻora» soʻzlari shevangizda uchraydimi? Misollar keltiring.
106. Sheva vakillari izohlagan qishloq nomlarini yozib qoʻyish.
107. «Ishkom, voyish, soʻri» soʻzlaridan qaysi biri shevaga xos?
108. Adabiy tildagi «bola» soʻzining qanday variantlari.
109. Sheva vakillari tomonidan izohlagan shahar nomlarini yozish.
110. «Moʻylov» soʻzining qanday koʻrinishlari mavjud?
111. Adabiy tildagi «chaqaloq» soʻzining qanday variantlari bor?
112. Oʻrganilayotgan shevadagi kishi aʼzolari nomlarini birmabir yozib oling.
113. Sheva vakillari aytgan ariq nomlarini qayd eting.
114. «Ochofat, xasis» kabi kishi xarakteridagi kamchilik-nuqsonni bildiruvchi soʻzlar shevada qoʻllanadimi? Qoʻllansa, misollar yozing.
115. Tegirmonchilikka oid atamalar bu shevalarda qoʻllanadimi?
116. Sheva vakillari aytib oʻtgan suv ombori nomlarini yozib oling.
117. Etikdoʻzlikka oid atamalar bu shevalarda ishlatiladimi?
118. Temirchilikka oid atamalar bu shevalarda qoʻllanadimi?
119. Shevada qanday ogʻirlik oʻlchovlari nomlari mavjud?
120. Sheva vakillari izohlagan daryo nomlarini yozish borish.
121. Shevada hunarmandchilik atamalari bormi?
122. Ushbu shevada tovuqni ifodalaydigan soʻzlarning yana qanday turlari bor
123. Shevada xoʻrozni ifodalaydigan soʻzlarning yana qanday turlari bor?
124. Sheva vakillari qoʻllagan bozor nomlarini qayd qiling.
125. Shevada vaqt oʻlchovlarini anglatuvchi soʻzlarga namunalari keltiring.
126. «Djʻger, bagʻr, bavur» soʻzlarining qaysi biri shevaga xos?

127. «Kiprik, kirpik, mujgon» soʻzlari shevada uchrasa, misollar keltiring.
128. «Byosh va kalla» soʻzlari shevada qanday maʼnolarda qoʻllanadi?
129. «Peshonc, mengley» soʻzlari shevada qanday maʼnolarda qoʻllanadi?
130. /Dost//dos, ortoq, djora//djoro//djourjon, esh, yoldyosh, yogʻcynʻ, boyʻnse, yoshne/ soʻzlarining qaysi biri oʻrganilayotgan shevada mavjud?
131. Sheva vakillarining nutqida qoʻllanilgan tepa nomlarini yozib olish.
132. Shevada «qoʻshni» soʻzining qanday variantlari mavjud?
133. «Xola» soʻzi shevada ishlatiladimi? Ishlatilsa, gap ichida qoʻllang.
134. Shevada xolaning bolasini qanday soʻzlar bilan atashadi?
135. Shevada amakining bolasini qanday soʻzlar bilan atashadi?
136. Shevada togʻaning bolasini qanday soʻzlar bilan atashadi?
137. Sheva vakillari izohlagan togʻ nomlarini yozish.
138. «Pochcha» soʻzi shevada qanday variantlarda ishlatiladi?
139. Sheva kishilari akasining xotinini qanday chaqiradilar?
140. «Boldiz, kundosh, ovsin, beka, bekach, oyim, aya, qayin, qayinsingil, qayinogʻa» soʻzlaridan qaysi biri koʻp ishlatiladi?
141. Bolalarning yosh jihatdan farqlanishi shevada qanday holatda?
142. Sheva vakillari tomonidan aytilgan koʻl nomlarini qayd etish.
143. Shevada adabiy tildagi «ona» soʻzining qanday variantlari bor?
144. Imorat va uning qurilishiga oid shevaga xos boʻlgan soʻzlar.
145. Chevarchilikka oid atamalarni yozib olish.
146. Kashtachilikka xos atamalarni qayd eting, yozib oling.
147. Shevada qanday gul nomlari tez-tez ishlatiladi?
148. Sheva vakillari taʼkidlab oʻtgan soy nomlarini yozib oling.
149. Bugʻdoy navlari sheva vakillari nutqida qoʻllanadimi?

150. Qovun navlari shevada qanday variantlarda saqlanib qolgan?
151. Tarvuz navlari shevada qanday tarzda ishlatiladi?
152. Shevangizga oid urug'-qabila nomlarini qayd etish.
153. Qanday uzum navlarini bilasiz, ular birma-bir yozing.
154. Shevada qush oviga oid qanday so'zlar ishlatiladi?
155. Aravaga oid qanday so'zlar shevada uchraydi?
156. Aravaso'zlikka oid qanday so'zlar mavjud?
157. Sheva vakillari izohlagan guzar nomlarini qayd eting.
158. Uy bezatishga oid qanday so'zlar shevada faol qo'llanadi?
159. Dam olishga xos bo'lgan qanday so'zlar shevada ishlatiladi?
160. Sheva vakillari nutqida qanday xalq o'yinlarining nomlari bor?
161. To'y nomlaridan qaysi birlari shevada ko'proq qo'llanadi?
162. O'g'il to'yi qanday holda o'tkaziladi?
163. Beshik to'ylari qanday tarzda o'tkazilishini yozib oling.
164. Qiz to'yi qanday o'tkazilmoqda?
165. Shevada «aqq'l', d d b'l'» so'zlari ishlatiladimi?
166. «O'qituvchi, muallim» ustoz so'zlari shevangizda ishlatiladimi?
167. Shevada «yostiq, bolish, lo'la, lo'lva, takya» so'zlari uchraydimi?
168. O'rganilayotgan shevada eskicha pul sanog'i mavjudmi?
169. O'rganilayotgan shevadagi numerativlarni qayd eting.
170. O'rganilayotgan shevada rang nomlari qanday aytiladi?
171. Sheva vakillari qayd etgan qabriston // mozor nomlarini yozish.
172. Uy-ro'zg'or nomlarini yozib oling.
173. Harakat nomlarini birma-bir qayd qilish.
174. Sheva vakillari tomonidan qo'llanayotgan ovqat nomlarini yozib oling (ularga oid so'z va iboralarni ham).
175. Shevangizga oid sutli ovqatlarning nomi yozib, izohlang.
176. Shevangizga xos yog'li ovqatlarning nomlari, ularga so'z va iboralar.
177. Shevaga oid «Yor-yor»larni (o'nta to'rtlik) yozib, ulardagi dialektal so'zlarning tagiga chizing.

178. Shevaga oid «Yor-yor»larni (o'nta to'rtlik) yozib olib, ulardagi iboralarning tagiga chizib chiqing.
179. Shevaga oid «Kuyov salom»larni (o'nta to'rtlik) yozib, dialektal so'zlarini belgilang.
180. Shevaga oid «Kuyov salom»larni (o'nta to'rtlik) yozing, iboralarni belgilang.
181. «Charlar» qanday o'tkaziladi? Ulardagi dialektal so'zlar va iboralarning tagiga chizing.
182. Kelin salomlar yozing, ulardagi dialektal so'zlarning tagiga chizib boring.
183. Kelin salomlar yozing, ulardagi dialektal iboralarning tagiga chizib chiqing.
184. Kelinlar uy bezaklariga oid so'z va iboralarni yozib oling.
185. Ovqatlarning pishirish usullarini birma-bir yozing.
186. Tandir kabob nima ekanligini sheva vakiliga izohlating.
187. To'ylarning nomi va o'tkazilish tartibini yozib, ulardagi dialektal so'zlarning tagiga chizib chiqing.
188. To'ylarda aytiladigan dialektal iboralarning tagiga chizing.
189. Darvishona urfini bayon eting va undagi dialektal so'zlarning tagiga chizib belgilang.
190. Darvishona urfini yozing va undagi dialektal iboralarning tagiga chizing.
191. Avodlaringizning ismlarini tug'ilgan va o'lgan yillari asosida yozing. Necha avlodingizni bilar ekansiz?
192. Marhumlar uchun qanday urf-odatlar o'tkazilib turadi?
193. Shevangizga oid kiyim nomlarini yozing, izohlang.
194. Shevangizga xos erkaklarning qishki va yozgi kiyimlarining nomini yozing va izohlang.
195. Shevangizga xos ayollarning kiyimlarining nomlari.
196. Shevangizga oid bo'lgan bolalar kiyimlarining nomlari.
197. Shevangiz vakillariga xos urf-odatlar nomi.
198. Uy bezaklari nomlarini qayd etish.
199. Kelinlar bezagi nomlarini yozib olish.
200. Ayollar ishlatadigan bezak nomlarini qayd qiling.
201. Qizlar ishlatadigan bezak nomlarini qayd etib o'tish.
202. Erkaklar uchun ishlatiladigan bezak nomlari.

203. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan toponimlarni qayd etish.
204. Shevangizga oid faol ishlatiladigan hikmatli so'zlarni yozing.
205. Faqat shevada qo'llanadigan bog'lovchilarga misollar keltiring.
206. Sheva vakillari nutqida ishlatilgan yuklamalarga misollar yozing.
207. Faqat shevada qo'llanadigan modal so'zlarga misollarlar yozib oling.
208. Sheva vakillari nutqida faol qo'llanadigan undovlarga misollar keltiring.
209. Shevada gaplashuvchilar qo'llanadigan holatga taqlid so'zlarga misollar keltirib o'ting.
210. Faqat shevada qo'llanadigan tovushga taqlidlarga misollar keltiring.
211. Shevangizga oid frazeologizmlarni qayd etib, ma'nolarini yozib qayd eting.
212. Shevangizga xos qo'pol frazeologizmlarni qayd etib, ma'nolarini yozib oling.
213. Sheva vakillar nutqiga oidbo'lgan sinonim frazeologizmlarni qayd etib, ma'nolarini yozish.
214. Shevangizga xos antonim frazeologizmlarni qayd etib, ma'nolarini yozib oling.
215. Shevangizga oid bo'lgan maqollarni yozib, izohlang.
216. Shevangizga oid tez aytishlarni yozib, undagi dialektal so'zlarning tagiga chizish.
217. Sheva vakillari izohlab berilgan viloyat nomlarini yozish.
218. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan kasalliklarning nomlarini birma-bir qayd qiling.
219. Shevangizga xos marosim nomlarini yozib oling.
220. Shevangizga oid bo'lgan (otaga, onaga, akaga, ukaga, opaga, singilga bag'ishlangan) marsiyalarni yozib, undagi dialektal so'zlarning tagiga chizing.
221. Sheva vakillari tomonidan juda kam eslanadigan urfodatlar nomini yozib chiqing.
222. «Mahmadona, ezma» so'zlari shevangizda qanday aytiladi?
223. DLga kirmaydigan (qarg'ish, haqorat, parnografik so'zlar kabi) bir qancha so'zlarni ham yig'ib olish kerak. Sababi,

DLga kirmaydigan so'zlarning ham lug'atlari haligacha tuzilmagan.

224. Hunarmandchilikka oid so'zlarni yozib oling va misollaringizni izohlang.

225. Arichilikka oid bo'lgan so'zlarni shevalardan yozib olingan dialektal matnlardan topib, daftaringizga qayd eting.

226. Lug'aviy tuzilishi o'zgarib ketgan dialektal so'zlarga misollar keltiring.

227. Yuqorida so'ralmagan so'zlar guruhlarini bo'yicha so'z uchrasa, ularni ham birma-bir qayd eting. Keltiriladigan misollar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi.

228. O'rganilayotgan hududning tarixiga oid voqealarning toponimik leksikada, ya'ni sheva so'zliklarida ifodalanishi bo'yicha mavollar berish.

SHEVALARDAN NOM(TOPONIM)LARNI YIG'ISH

Joy nomlarini¹ to'plash va o'rganish qadimdan davom etib kelayotgan yaxshi an'analardan biridir. Ularni filologlar ham, tarixshunoslar ham yig'ishlari, to'plashlari uchun so'roqlik zarur bo'ladi². Shu o'rinda tarixiy toponimlar bo'yicha so'roqlikni shakllantirish ham lozim, deb bilamiz. So'roqlik tarixiy va zamonaviy obyekt hamda hududlar doirasiga ko'ra alohida tarzda tuzilishi o'rinlidir. Mana shunda tadqiqotlar uchun kerakli bo'lgan materiallar manbalarini to'play olish mumkin bo'ladi. Toponimlarni yig'ish so'roqligini bu sohada tadqiqotlar olib borgan ko'pchilik u yoki bu darajada tuzishgan, ammo nashri bilan shug'ulla-

¹ Nomlarni, xususan, joy nomlarini ham xalq yaratishini va ular xalq tilida saqlanib qolishini hisobga olsak, ular ham dialektal so'zlar, ham tarixiy so'zlar, ya'ni tarixiy toponimlar jumlasiga kirishi tabiiy holdir.

² Sababi, filologlar ham adabiy va badiiy asarlardagi toponimlarga, shuningdek, mamlakatimiz hududidagi joy nomlariga duch kelishgani kabi tarixshunoslar ham ham tarixiy, ham zamonaviy mavzudagi tarix kitoblariga murojaat qilishganda toponimlarga duch kelishlari tabiiy. Tayyorlanayotgan so'roqlik esa bu muntazimlarni toponimlarni yig'ish bo'yicha metodik ta'minot vaftlarini bajaradi.

nishmagan. Faqat T. Enazarovning toponimlarning yig'ish so'roqligi kitob holida nashr etilgan, xolos¹.

Insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, joylarga berilgan nomlar hamda ularning o'rganilishi ham shunchalik qadimiy. Yon atrofdagi turli tuman joylarni ularga berilgan nomlar asosida topamiz, tushunamiz, anglab etamiz va eslab qolamiz. Sababi, joy nomlari (toponimlar) o'ziga xos xarita va o'ziga xos ma'naviy yodgorliklardan biri sanaladi.

Bugungi kunda xalqimiz, hukumatimiz miqyosida joy nomlariga diqqat e'tibor ancha kuchaydi. Bu holni 1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan Davlat tili haqidagi qonunda yana ham aniqroq ko'rish mumkin. Ushbu qonunning 24-moddasida Vatanimiz joy nomlarini e'zozlash, xalqimizning milliy mulki sifatida davlat tomonidan muhofaza qilish alohida ta'kidlab o'tilganligini ko'rish mumkin:

24-modda «O'zbekiston Respublikasidagi shahar, qishloqlar, maydonlar, ko'chalar, bekatlar, tarixiy obidalar va boshqa jug'rofiy-hududiy o'rinlarning nomlari yagona milliy shaklda beriladi va respublika davlat tilida yoziladi.

Xorijiy mamlakatlardagi barcha jug'rofiy nomlar o'zbek milliy-tarixiy an'analariga va o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan holda o'zbek tilida raqam etiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi barcha tarixiy ismlar va joylarning nomlari xalqning milliy mulki hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi»².

Hozirgi kunda nomshunoslikdagi, xususan, toponimikadagi bahsli muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Nomlarning imlosi muammolari.
2. Toponimlar qanday yozilganda to'g'ri bo'ladi?
3. Toponimlarning qo'llanish me'yori qanday?
4. Qanday me'yorlarga asoslangan holda joylarga nom berish mumkin?

¹ Enazarov T. Joy nomlarini yig'ish so'roqligi. T., 1995. 32 bet. (prof. K. Nazarov bilan hamkorlikda).

² Abdumajidov G.A., Shohnazarov T.T. O'zbekistonning Davlat tili haqidagi qonunga sharhlar. Toshkent. O'zbekiston, 1990, 32-bet.

5. Toponimlarning ishlatilish darajasi qay holda (tarixiy va zamonaviy nomlar misolida)?

6. Ularni izohlashda nimalarga tayanish kerak?

7. Ularni etimologik tahlil qilishda nimalarga asoslanish lozim bo'ladi?

Ushbu muammolarni echish uchun, albatta, katta toponimik lug'at boyligi zarur bo'ladi. Shularni hisobga olib, joy nomlari (ham mikrotoponimlar, ham makrotoponimlar) ni yig'ish, to'plash uchun zarur bo'lgan so'roqlikni tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz¹. Bunday so'roqlik toponimik haddudning katta-kichikligi, turli nomlarning kam-ko'pligiga qarab tuzilishi o'rinli holdir.

NOM(TOPONIM)LARNI YIG'ISH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Qanday nomlarni bilasiz?
2. Tarixiy obyektlarning nomlarini bilasizmi?
3. Ularni qanday farqlaysiz?
4. Tarixiy voqea va hodisalarning nomlari(xronologizmlar)ni kishilar nutqidan yozib oling.
5. Nomlarni qanday yozish kerak?
6. Ularning ma'nolarini bilasizmi?
7. Nega ularni turlicha izohlashadi?

YER OSTIDAGI TOPONIMLARNI YIG'ISH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Siz yashayotgan joyda qanday yer osti g'ori bor? Uning nomini bilasizmi? Uni nega bunday holatda bo'lishida, sizningcha, utma sanaladi?

2. Yer osti g'orlari katta-kichikligi va nomlanishi bilan farqlandimi?

¹ Albatta, bu kitobda tarixshunoslarning fikr-mulohazalari kerakligi uchun X.T. Abdullayevning tarixiy toponimlar to'g'risidagi mulohazalari e'tiborga olindi.

3. Bir yerda joylashgan ikki yer osti g'ori nomlanishda o'zaro bir xillikni tashkil qiladimi, nega shunday holat ro'y bergan?

4. Yer usti ko'llarining nomlarini bilasizmi? Ularning nomlanishi yoqadimi?

5. Yer usti ko'llari yer osti ko'llaridan qanday farqlanadi?

6. Yer osti ko'llarining nomlarini bilasizmi?

SUV INSHOOTLARINING NOMLARINI YIG'ISH UCHUN SAVOLLAR

1. Odamlar daryolarni qanday nomlar bilan atashadi?

2. Ariq(lar)ning nomi nima?

3. Ariqning qanday turlari bor?

4. Sizlar yashaydigan joyda ariqning qanday turlari mavjud?

5. Tabiiy va sun'iy ariqlar nomlanishda farqlanadimi?

6. Ko'llarning nomlari nima?

7. Ko'lning boshqa qanday turlari bor?

8. Buloqlarning nomlari bormi?

9. Buloq va chashma nomlari bir xil ma'noda ishlatiladimi?

10. Kanalning nomi nima?

11. Daryolardagi ko'prik nomi nima?

12. Ariqlardagi ko'prik nomi nima deyiladi?

13. Kanallardagi ko'prik nomi nima?

14. Ariqda suv shahobchalari bormi (kuloq, ariqcha...)?

15. Kanalda suv shahobchalari bormi (kuloq, ariqcha...)?

16. Daryoda baland to'siqlar qanday nomlangan?

17. Ariqda baland to'siqlar bormi yoki yo'qmi?

18. Kanalda baland to'siqlar nomi bormi?

19. Ariqda suv shahobchalari bormi (kuloq, ariqcha...)?

20. Kanalda suv shahobchalari bormi (kuloq, ariqcha...)?

21. Quduqlarning nomi bormi (artezan, artezan quduq, qazilgan quduq...)?

22. Hovuzlarning nomlarini bilasizmi?

23. Jarning nomi nima?

24. Ko'lmak suvlari to'plangan erlarni nima deysizlar?

25. Sizot suvlari oqadigan ariq va kanallar qanday nomlangan?

26. Ko'ylarning nomlari bormi? Nega shunday nomlangan?

27. Ko'y bo'ylari nima deb ataladi? Uning ma'nosi nima?

28. Suv omborlarining nomlari bormi? Nega bu tarzda nomlangan?

29. Ariq bo'ylari nima deb nomlanadi? Bu nomlar nimani anglatadi?

30. Daryo bo'ylari nima deb nomlangan?

31. Buloq (chashma) bo'ylari nima deb nomlangan? Sababi nima?

32. Suv inshootlari (suv yo'llari)ning yana qanday nomlari bor?

33. Shahobchash suvli joylarning nomlari bormi?

34. Ariqning qanaqa turlari bor?

35. Ariq bilan anhorning farqi bormi?

36. Zovlar bor bo'lsa, nomlarini yozing.

37. O'qariqlarning nomini birma-bir qayd eting.

38. To'g'onlar bormi? Ularni odamlar nima deb atashadi?

39. Hidroelektr stansiyalarning nomlarini yozib oling va ularning qanday ma'nolarni anglatishini bilasizmi?

40. Ariq, daryo, kanal kabi gidronimik inshootlarning tarixiy nomlarini bilasizmi?

OYKONIMLARNI YIG'ISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qishlog'ingizning nomi nima? Yana qanday nomlar bilan ataladi?

2. Siz yashayotgan qishloqning oldingi nomini yozib, izohlang.

3. Ovuligizning nomi nima?

4. Alohida o'y-joyli yerlar nima deb ataladi?

5. Shahringizning nomi nima? U yana qanday nomlar bilan nomlangan?

6. Mahallangizning nomi nima? U yana qanday nomlar bilan ataladi?

7. Mahallangiz oldin qanday nom bilan atalgan?

8. Guzar bormi? Guzarining nomi nima? U qanday ma'noni anglatadi?

9. Yashayotgan joyingizda eski maktab bormi? Nomi nima?
10. Yashayotgan joyingizda yangi maktablarning nomini yozing.
11. Istiqomat qilayotgan joyingizda magazinlar qanday nomlangan?
12. Choyxona(lar) bormi? U(lar)ning nom(lar)i nima?
13. Bozor(lar) bormi? Ularnin nomi nimani anglatadi?
14. Supalarning nomi bormi? Ularning nomlari nimani ifodalaydi?
15. G'orlar bormi? Ularning nomlari bormi?
16. G'orlar to'g'risida xalqda qanday afsona va rivoyatlar yuradi?
17. Dam olish joylari bormi? Ularning nomlari sizga yoqadimi?
18. Shahringiz qanday qismlarga bo'lingan? Ularning nomlari nima?
19. Siz yashayotgan qishloqning nomi nima?
20. Qishlog'ingiz qismlarga bo'linganmi? Bu qismlarning nomlari nima?
21. O'yingohlar bormi? Ularning nomlari nimani anglatadi?
22. Yashayotgan joyingizda sataroshxona(lar) bormi? Ularning nomi nima?
23. Temirchilik ustaxonasining nom(lar)i nimani ifodalaydi?
24. Istiqomat qilayotgan joyingizda non pishiradigan maxsus joylarning nomlari nima va qanday ma'noni ifodalaydi?
25. Mehmonxona(lar) bormi? Nom(lar)i nima? Nima uchun shunday nomlangan?
26. Shahar, qishloq kabi toponimik obyektlarning tarixiy nomlarini bilasizmi?

AGROONIMLARNI TO'PLASH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Siz yashayotgan joyda angor, hayot, so'tik, tomorqa, maydon, ekin maydoni kabi atamalar bilan ifodalangan joylarning nomlari uchraydimi?
2. G'allazorlarning nomlari bormi?

3. Pastazorlarning nomlarini birma-bir qayd qilib qo'ying.
4. Sholizorlarning nomlari siz yashayotgan joyda bormi? Nomi nima?
5. Hudaqoyalarning qanday nomlarini bilasiz?
6. Bog'larning nomlari bormi?
7. Makkajo'xozzorlarning nomlarini bilasizmi?
8. Karamzorlarning qanday nomlari bor?
9. Yung'oqzorlarning nomlari bormi?
10. Bodomzorlarning nomlarini bilasizmi? Ma'nosi nima ekan?
11. Anorzorlarning nomlarini birma-bir qayd qilib o'ting.
12. Terakzorlarning nomlari bormi?
13. Yulg'unzorlarning nomlarini bilasizmi?
14. Achazorlar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.
15. Qumzorlar bormi? Ularning nomlarini bilasizmi?
16. Gulzorlarning nomlarini birma-bir qayd eting.
17. Gulzorlarning nomlari haqida afsona va rivoyatlarni bilasizmi?
18. Sabzavot va polizchilik yerlarining nomlari ham bormi?
19. Qamishzorlar bormi? Ularning nomlari bormi?
20. Yantoqzorlarning nomlari bormi? Ularning ma'nosi nima?
21. Bu nomlar to'g'risida qanday afsona hamda rivoyatlarni bilasiz?
22. Lalni ekin ekiladigan yerlarning nomlari bormi?
23. O'tzorlar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.
24. Podaxonalar bormi? Podaxonalarning nomlari bormi?
25. Mollarni boqadigan, dam oldiradigan yerlarning nomlarini bilasizmi? Ularni birma-bir qayd qiling.
26. Qo'ylarni boqadigan, dam oldiradigan yerlarning nomlarini yozing.
27. Chukuri (ravoch) o'sadigan joylarning nomlari bormi?
28. Tutzorlar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd qiling.
29. Dasht bormi? Uning nomi nima? (Dasht, dashtlik...)
30. Sutiklarning nomini yozing.
31. Hayot, chet so'zlari agroonimlar(nom)da qo'llangan bo'lsa, yozib oling.

32. Toshloq bormi? Uning nomi nima va qanday ma'noni anglatadi?

33. Odamlar foydalanadigan ekin yerlarning nomlari bormi?

MUQADDASLASHTIRILGAN¹ NOMLARNI YIG'ISH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Machitlarning nomlari bormi?
2. Madrasalar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.
3. Shahid joylarning nomlari bormi?
4. Xalq «ulug' joy» deb e'zozlaydigan joylarning nomini yozing, ularni tarixiy ma'lumotlar bilan sharhlang.
5. Muqaddaslashtirilgan er – joylarning nomlari bormi?
6. Go'rlar va qabrlarning nomlari bormi?
7. Yakka qabrli joylar qanday ataladi?
8. Mozor(lar)ning nomlari bormi?
9. Chaqaloq mozorlarning nomlari bormi?
10. «Katta kishilar dafn etiladigan mozorlarning nomlari nima?»
11. «Maqbaralar bormi? Ularning nomlarini qayd eting.
12. «Ziyoratgohlarning nomlari bormi?»

TOG' VA TEPALIKLARNING NOMLARI BO'YICHA SAVOLLAR

1. Tog' bormi? U(lar)ning nom(lari)ni yozing, ular nimani anglatadi?
2. Tepaliklarga qanday nomlar qo'yilgan?
3. Tog' cho'qqilarining nomlari bormi?
4. Adirlarning nomlarini bilasizmi?
5. Qoyaliklar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.
6. Qirlarning nomlarini bilasizmi? Ularning ma'nosi nima?
7. Tog'da yo'llar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.

¹ Bunday nomlarni tarixda, tarixshunoslikda ham faol qo'llanishi va o'rganilishi bugungi O'zbekiston tarixi fanining o'ziga xos dolzarb masalalaridan biri sanaladi (ta'kid – X.T.Abdullaevniki).

8. Balandliklarning nomlari bormi? Ularning nomi nima?

9. Nishabliklarning nomlarini bilasizmi?

10. Baland-pastlikning nomlarini yozib boring.

11. Jarlarning nomlari bormi? Ularning nomlarini yozib oling.

12. Tog' tepasi nima deyiladi?

13. Tog' tepasidagi muzliklarning nomlari nima?

14. Tog' tepasidagi toshliklarning nomlari bormi?

DROMONIMLARNI YIG'ISH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Ko'chalar bormi? Ularning nomlarini birma-bir qayd eting.
2. Katta ko'chalarning nomlarini yozing.
3. Ko'chalarning nomlarini yozib oling.
4. Berk ko'chalarning nomlarini yozing.
5. Ko'chalarning nomlari sifatida nimalarga e'tibor berilgan?
6. Ko'chalarda bekatlar bormi? Ularning nomlarini qayd eting.
7. Tosh yo'llar qanday nomlangan va qanaqa ma'nolarni anglatadi?
8. Asfalt yo'llarning nomlarini bilasizmi?
9. Adirliklardan o'tadigan yo'llarning nomlarini birma-bir qayd eting.
10. Temir yo'llar bormi? Ularning nomlarini to'liq holda yozing.
11. Yo'llarning nomlari bormi?
12. Yolg'izoyoq yo'llarning nomlarini birma-bir yozing.
13. Tramvay yo'llarining nomlarini bilasizmi?

TARIXIY YODGORLIKLARNING NOMLARI BO'YICHA SAVOLLAR

1. Eski qo'rg'onlarning nomlarini eslaysizmi?
2. Eski qishloqlarning nomlarini birma-bir yozing va izohlang.
3. Eski shaharlarning nomlarini aniq qilib ro'yxatga tushiring.
4. Tarixiy voqealar ro'y bergan joylarning nomlari hamda ularning kelib chiqishi to'g'risidagi afsonayu rivoyatlarni bilasizmi?

5. Tarixiy hodisalar ro'y bergan joylarning nomlari hamda ularning kelib chiqishi to'g'risidagi afsonayu rivoyatlarni yozib qo'ying.

6. Agar bor bo'lsa, eng qadimiy yodgorliklarning nomlarini ham yozing.

7. Xalqimiz tarixiga oid qanday tarixiy obyektlar mavjud?

8. Ularning to'liq nomlari va ular qanday ma'nolarni ifodalaydi?

9. Eski qal'alar bormi?

10. Ularning nomlarini izohi bilan yozib oling.

PARAGOGONIMLARNI YIG'ISH BO'YICHA SAVOLLAR

1. Qurilish tashkilotlarining nomlari bormi?

2. Maktablarning nomlarini birma-bir qayd eting.

3. Siz yashayotgan joyda internat-maktablarning nomi bormi?

4. Bolalar bog'chalarining nomlari bormi?

5. Institutlar qanday ataladi?

6. Universitetlarning nomlari bormi?

7. Texnikumlarning nomlarini birma-bir qayd qiling.

8. Kolxoz (jamo) xo'jaliklarining nomlarini bilasizmi?

9. Jamoa xo'jaligidagi bo'limlar qanday nomlangan?

10. Brigadalarning nomlari bormi?

11. Brigada shiyponlarining nomlarini bilasizmi?

12. Jamoa xo'jaligi omborlarining nomlari bormi?

13. Bozorlarning nomlarini birma-bir qayd etib chiqing.

14. Fermer xo'jaliklarining nomlarini yozing.

15. Avtokorxonalar bormi? Ularning nomlari qanday ataladi?

16. Davlat huquq idoralarning nomlarini bilasizmi?

17. Gazeta tahririyatlarining nomlarini yozing

18. Jurnal tahririyatlarining nomlarini bilsangiz, yozib oling.

19. Dorixonalarning nomlari bormi?

20. Ishsizlarni ishga joylashtirish idorasining nomini bilasizmi?

21. Nikohdan o'tish joylarining nomlarini to'liq qayd eting.

22. Oromgoh(lar)ning nomi bormi? Nega shunday ataladi?

23. Dam olish (sanatoriya) joylarining nomlari bormi?

24. Poliklinikalarning nomlarini bilasizmi? Yozib oling.

25. Kasalxonlarning nomlari qanday? Yozing.

26. Omborlarning nomlari bormi? Yozib oling.

27. Jamoa (xo'jaligi) idorasining nomini bilasizmi?

28. Yarmarkalarning nomlarini birma-bir qayd eting.

29. Ko'chma do'konlarning nomlarini yozing.

30. Paxta zavodlarining nomlari bormi? Yozib oling.

31. Pilla zavodlarining nomlarini bilasizmi?

32. Pilla qabul qilish joylarining nomlarini yozing.

33. Non ishlab chiqarish korxonalarining nomlarini bilasizmi?

34. Aroq-vino zavodlarining nomlarini birma-bir qayd qiling.

35. Aeroportlarning nomlarini bilasizmi?

36. Traktor parkining nomini to'liq yozing.

37. Avtobus parikining nomlari bormi? Ularni to'liq qayd qiling.

38. Yoqilg'i beradigan joylarning nomi nima deb ataladi?

39. Tramvay-trolleybus parklarining nomlari bormi?

40. Poyezdlar to'xtab o'tadigan stansiyalarning nomlarini bilasizmi?

41. Bosh bekatlarning nomlarini birma-bir qayd eting.

42. Do'xtirxona (ambulatoriya)larning nomlarini bilasizmi?

43. Klublarning nomlari bormi? Nega ular bu tarzda nomlangan?

44. Avtovokzallarning nomlarini birma-bir yozing.

45. Temir yo'l vokzalining nomi nima? Nega unday nomlangan?

46. Yoqilg'i bilan ishlaydigan issiqlik stansiyalari bormi?

47. Nashriyotlarning nomlanishi qanday va ularning nomlarini yozing.

48. Bosmaxonalarning nomini bilsangiz, yozing.

49. Yana qanday tashkilotlarning nomlari unutildi? Yana qanday tashkilotlarning nomlari unutildi? Bilsangiz birma-bir yozib oling.

TEVARAK-ATROFDAGI JOY NOMLARI HAQIDA FIKR-MULOHAZALAR

1. Yashayotgan joyingizdagi joy nomlarining atalishi, aniqrog'i, nomlanishi sizga ma'qulmi yoki yoqmaydimi? Nima uchun?

2. Istiqomat qilayotgan yeringizdagi joy nomlarining imlosi - yozilishi sizningcha qanday va qay tarzda bo'lsa, to'g'ri bo'lardi deb hisoblardingiz?

3. Joylarga kishilarning ismlarini nom sifatida qo'yilishini qanday izohlaysiz: ma'qulmi yoki noma'qulmi?

4. Joylarga kishilarning ismi-shariflarini nom sifatida qo'yilishini qanday izohlaysiz: ma'qulmi yoki noma'qulmi? Nima uchun?

5. Joylarga kishilarning taxalluslarini nom sifatida qo'yilishini qanday izohlaysiz: ma'qulmi yoki noma'qulmi? Nega?

6. Joylarga kishilarning laqablarini nom sifatida qo'yilishini qanday izohlaysiz: ma'qulmi yoki noma'qulmi?

7. Joylarning oldindan nomlanib, aytilib kelinayotgan nomlari ma'qulmi yoxud maxsus qaror chiqarib, sun'iy ravishda berilgan nomlarmi?

8. Toponimlarning o'zgarilishiga qanday qaraysiz? Ba'zi bir joylarning tarixiy nomlari mavjud bo'lgani holda yangi nomlar berilmoqda. Bunga sizning fikringiz qanday?

9. Sizga joy nomlari bir tashkilot tomonidan ma'lum tartib qoidalar asosida qo'yilgani ma'qulmi? Yoxud har kim o'zicha nomlagani ma'qulmi?

10. Joylarga nomlar berishda sizning qanday fikr-mulo hazalaringiz bor? Iloji bo'lsa, ularni birma-bir yozib, qayd qilib o'tsangiz.

11. Sizningcha, joylarga berilayotgan nomlar, qisqa yoxud uzun, aniqrog'i, ko'p so'zli bo'lgani ma'qulmi?

12. Yangi qurilayotgan (qurib bo'lingan) yoxud endi o'zlash-tirilayotgan joylarga nomlar berilganda nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?

13. Bog'chalar kabi tashkilotlarning nomlari qanday bo'lgani tuzuk?

14. Maktablar kabi ba'zi bir tashkilotlarning nomlari qanday bo'lgani ma'qul?

15. Poliklinikalar kabi ba'zi bir tashkilotlarning nomlari qanday bo'lgani yaxshi?

16. Savdo do'konlariga egalarining nomlarini ularga nom deb qo'yish to'g'rimi? Yoki milliy-ma'naviy jarayondan kelib chiqib nomlash kerakmi?

17. Toponimlar to'g'risidagi fikrlarni o'qib, eshitib bundan keyin Siz toponimlarni yig'ish, bir tizimga solishga qanday tarzda hissa qo'shmoqchisiz?

18. Vatanimiz toponimlariga xos bo'lgan takrorlanmas xususiyatlar deb qanday xarakterli holatlarni ko'rsatgan bo'lardingiz? Nima sababdan?

19. Kishi ismi-sharifi bilan yangi joylarga nom qo'ysa bo'ladimi? Nega?

20. Siz yashab turgan joylarda toponimik obyektlarga nom qo'yishning eng xarakterli hamda ommaviy ko'rinishi nimalar deb ko'rsatgan bo'lardingiz?

SHEVALAR SINTAKSISI BO'YICHA MATERIALLAR TO'PLASH

Shevalar sintaksisini o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish (10 tadan misol yozish) maqsadga muvofiq:

1. Shevaga xos so'z birikmalarini qayd eting.
2. Shevaga xos yigirmata sodda gaplarni yozing.
3. Gap tuzilishida bo'ladigan alohida holatlarni qayd qilish.
4. Sodda gaplarning bir tarkibli turlariga misollar keltiring.
5. Sodda gaplarning ikki bosh bo'lakli turlariga misollar keltiring.
6. Undalmali gaplarga misollar keltiring.
7. Bir sostavli (bir o'ramli) gaplarning alohida turlari uchrasa, ularni yodlab olish.
8. Gap bo'laklarining shevaga xos joylashish xususiyatlarini aniqlab, misollar keltiring.
9. Egalar uyushib kelgan gaplarga misollar yozing.

10. Kesimlari uyushib kelgan gaplarga misollar yozing.
11. Ikkinchi darajali bo'laklari uyushib kelgan gaplarga misollar yozing.
12. Sheva vakillarigagina xos so'z birikmalari bormi?
13. Shevada tarafi b?z?r, buluti siy?, guli ra'n?, m ?z?ri kalon kabi izofali so'z birikmalari mavjudmi?
14. Tobe so'z ko'makchi bilan bog'langan holda keladimi? (*Bolasiychun opti-bolasi uchun opti kabilar*).
15. Shevangizda qo'shma gaplar qo'llanadimi? Misollar keltirib o'ting.
16. Qo'shma gapning shevaga xos xususiyatlariga e'tibor berish va ularni yozib olish.
17. Qo'shma gapning shevaga xos qanday turlari uchradi? Misollar keltiring.
18. Qo'shma gapning bog'langan turiga misollar keltiring.
19. Qo'shma gapning bog'lovchisiz turiga misollar yozing.
20. Qo'shma gapning ergash gapli qo'shma gaplar turiga misollar keltiring.
21. Shevangizda sodda gaplar yoki qo'shma gaplar ko'p uchraydimi?
22. Shevadagi gaplarda gap bo'laklarining joylashishini misollar bilan bayon eting (Masalan, aniqlovchi + ega+ to'ldiruvchi + to'ldiruvchi + hol + kesim; ega + to'ldiruvchi + kesim kabi).
23. Shevadagi gaplarda gap bo'laklarining joylashishi.
24. Shevangizda sodda gapdan ko'p foydalanadimi?
25. Shevangizdagi gaplarda kiritma bo'laklar ham qo'llanadimi?
26. O'zga gapning alohida turlari uchrasa, ularni qayd qilish.
27. Shevada bir so'zdan iborat gaplar uchradimi?
28. Shevangizda ajratilgan gap bo'laklari berilgan gaplarga besholtita misollar keltirib.
29. Sheva ko'p qo'llanadigan gaplarga misollar yozing.
30. Shevada ko'p ishlatiladigan sodda gaplarga misollar qayd eting.
31. Shevada ko'p qo'llanadigan qo'shma gaplarga namunalar keltiring.
32. Shevada ishlatiladigan so'z-gaplarga misollar yozing .

33. Shevaga xos bo'lgan har qanday oborot va konstruksiyalarni yozib oling.
34. Murakkab konstruksiyali gap(matn)larga 4—5 ta namuna yozing.
35. Shevangzda gapiradigan 60—80 yoshli erkaklardan o'nta matn yozing. Ular *Mehr, Orzu, Baxt, Vatan, Yoshlik, Kasb, Bog'dorchilik, Chorvachilik, Asalarichilik, Farzandlar, An'analar, Qadriyatlar, Hamkorlik, Navro'z, Bahor, Kasbim, Umrin besamar emas, Ustozlarim, Yoz, Kuz, Qish, To'y, Tantana, Qishloq yoki Shahar go'zalligi, Ekinlar, Gullar, Dalalar, Bog'lar, Tog'(lar), Daryo(lar)* mavzularda bo'lishi kerak. dagi gaplar miqdori 30 (o'ttiz)tadan ortiq bo'lishi mumkin, ammo kam bo'lmasligi shart.
36. Shevangizda gapiradigan 60—80 yoshli ayollardan o'nta matn yozing. *Farzand kamoli, Farzandlar, Gullar, Qizlarim, Bezanish odobi, Ovqat qilish odobi, Gapirish odobi, Tog'(lar), Ayollar kiyimi, Ayollar orzusi, Uy bezaklari, Dalalar, Ayollar tadbirlari, Mehr, Orzu, Baxt, Vatan, Yoshlik, Kasb, Bog'dorchilik, Chorvachilik, Asalarichilik, Daryo(lar), An'analar, Qadriyatlar, Hamkorlik, Navro'z, Bog'lar, Bahor, Kasbim, Umrin besamar emas, Ustozlarim, Yoz, Kuz, Qish, To'y, Tantana, Qishloq yoki Shahar go'zalligi, Ekinlar, Qizlarodobi, Onalar mehri, Baxtim — taxtim* va boshqa mavzularda bo'lishi kerak. Yozib olinadigan matnlardagi gaplar miqdori 30 (o'ttiz)tadan ortiq bo'lishi mumkin, ammo kam bo'lmasligi shart.

DLga KIRITILMAYDIGAN SO'ZLAR

Shu o'rinda qayd etish kerakki, hamma so'zlar ham dialektal so'z bo'lavermaydi. Chunki quyidagi so'zlar, terminlar shevalar lug'atiga, ya'ni DLga kiritilmaydigan, ammo ulardan maxsus lug'at(lar) tuzish lozimligini ham ta'kidlashni lozim deb bilamiz. Bunday so'zlarni ikki guruhga bo'lamiz:

1. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan bo'lib, yig'ish shart bo'lgan, lekin DLga kiritilmaydigan so'zlar. Ushbu so'zlarni jamlab maxsus lug'at tuzish mumkin.

2. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan, ammo yig'ish shart bo'lmagan DLga kiritilmaydigan so'zlar. Mazkur so'zlarni jamlab maxsus lug'at tuzish lozim emas.

Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan bo'lib, yig'ish shart bo'lgan, lekin DLga kiritilmaydigan, biroq maxsus lug'at tuzishga asos bo'ladigan so'zlarning guruhlari:

- 1) og'zaki so'zlashuv tiliga oid leksika;
- 2) dialektologik tekshirish obyektiga taalluqli bo'lmagan, boshqa joylardan kelgan, boshqa shevalarni vakillari nutqiga oid so'zlar;
- 3) umumsheva vakillari nutqi uchun xos bo'lmagan, individual xarakterdagi okkazional (tasodifiy) so'zlar;
- 4) sheva vakillari nutqida qo'llanadigan varvarazim(haqorat so'z)lar;
- 5) shevada qo'llaniladigan parnografik so'zlar;
- 6) ayrim shaxslar guruhi nutqida qo'llanadigan argolar;
- 7) ayrim shaxslar guruhi nutqida qo'llanadigan jargonlar;
- 8) yosh bolalar (go'daklar) tiliga oid so'zlar.

**SHEVA VAKILLARI NUTQIDA QO'LLANADIGAN,
AMMO YIG'ISH SHART BO'LMAGANI UCHUN
DIALEKTAL LUG'ATGA KIRITILMAYDIGAN
SO'ZLARNING GURUHLARI:**

- 1) adabiy tilda keng doirada qo'llanadigan so'zlar (bunday so'zlarni yig'ish shart emas);
- 2) kitobiy uslubiy xos so'z (bunday so'zlarni yig'ish shart emas);
- 3) terminlar (bunday so'zlarni yig'ish shart emas);
- 4) adabiy tilda mavjud bo'lgan so'zlar va terminologik leksika (bunday so'zlarni yig'ish shart emas);
- 5) sheva vakillari ma'nosiga tushunmaydigan diniy aqidalarga oid so'zlar (bunday so'zlarni yig'ish shart emas).

**O'zbek filologiyasi fakulteti 5220100-Filologiya
(o'zbek filologiyasi yo'nalishi 2-kursida «O'zbek
dialektologiyasi» fanidan dialektologik
amaliyotini o'tkazishning**

KALENDAR REJASI

№	Kuni	Amaliyot davrida bajarilgan ishlar mazmuni	Ajratilgan soatlar	Bajarilganligi haqida belgi-
1		Dialektologik amaliyot o'tkazishgadoir maslahatlarni aytish. Amaliyotgaborilgan hudud rahbarlari va aholisi bilan tanishish.	6	
2		O'rganilayotgan sheva hududini o'rganib chiqish. Shu amaliyot o'tayotgan hudud rahbarlari va aholisi tanishib, aholining shevasi bo'yichamateriallar to'plash ishlarini kuchaytirish.	6	
3		Malakaviy amaliyot uchun tanlangan sheva hududini o'rganish. Mazkur amaliyot o'takazilayotgan hudud rahbarlari va aholisi tanishib, aholining shevasi bo'yicha fonetika, leksika va grammatikaga oid bo'lgan materiallarni yig'ishni kuchaytirish.	6	
4		Mazkur amaliyotni o'tkazish maqsadida tanlangan sheva hududini o'rganish. Dialektologik amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, aholining shevasi bo'yicha leksika hamda morfologiyaga oid bo'lgan materiallarni yig'ish, to'plash, yozib olish, transkripsiya qilish.	6	
5		Rejalashtirilgan holda dialektologik amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, aholining shevasi bo'yicha leksik va fonetik ahamiyatgamolik bo'lgan materiallarni yig'ish, to'plash, yozib olish, transkripsiya qilish.	6	

Jadvalning davomi

6		Ushbu amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, aholining shevasi bo'yicha leksika, morfologiya bo'yicha materiallar yig'ish, to'plash, yozib olish, transkripsiya qilish. Bajarilgan haftalik ishlarini tahlil etishgakerishish.	6	
7		Dialektologik amaliyot o'tayotgan hudud aholisining shevasi fonetika bo'yicha materiallarni ajratib yig'ish, to'plash. Bajarilgan ishlarni yozmaravishda tahlil etish.	6	
8		Sheva amaliyoti o'tayotgan hudud aholisining shevasi bo'yicha materiallar yig'ish, to'plash. Bajarilgan ishlarni tahlil etishga kirishish.	6	
9		Rejalashtirilgan holdadialektologik amaliyot o'tayotgan hudud kishilari bilan tanishib, aholining shevasi bo'yicha leksika hamda fonetikaga oid bo'lgan materiallarni yig'ish, to'plash, transkripsiya qilish va yozma ravishda tahlil etish.	6	
10		Bu amaliyot o'tayotgan hudud aholisining shevasidagi leksikava morfologiya bo'yicha materiallar yig'ish, to'plash, yozib olish, transkripsiya qilish.	6	
11		Dialektologik amaliyot o'tayotgan hudud aholisi bilan aholisi tanishib, aholining shevasi bo'yicha materiallarni yig'ish, to'plash, transkripsiya qilish	6	

Jadvalning davomi

12		Ushbu dialektologik amaliyot o'tayotgan hududning aholisi bilan tanishib, aholining shevasi bo'yicha materiallarni yig'ish, fonetik, leksik va grammatik jihatdan to'plash. Bajarilgan ishlarni transkripsiya va dialektal so'z nuqtayi nazaridan tahlil etishga kirishish.	6	
13		Mazkur amaliyot o'tayotgan hudud aholisining shevasi bo'yicha materiallarni yig'ish, fonetik, leksik va grammatik jihatdan to'plash, jamlash, transkripsiya qilish. Amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlashga kirish.	6	
14		Bu malakaviy amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlash, topshirish vao'zi to'plagan reyting balini bilish.	6	
15		O'tkazilgan amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlab, fakultetdagi amaliyot rahbariga topshirish vao'zi to'plagan reyting balini bilish. Amaliyot yakuni bo'yichao'tkaziladigan yakuniy anjumanga qatnashishga tayyorlanish va qatnashish.	6	

Eslatma

Talabalarning amaliyot kundaligi va amaliyot davrida qilgan ishlari hisoboti amaliyot tugashi bilan amaliyot rahbarlari tomonidan qabul qilinib, amaliyotning oxirgi kuni baholanib, kerakli hamda zavrur hujjatlar to'ldirib qo'yiladi. Shuning uchun talabalar amaliyot hujjatlarini o'z vaqtida topshirishlari shart. Aks holda, amaliyot hujjatlarini o'z vaqtida topshirmaganligi uchun talaba(lar) mazkur amaliyotdan qarzdor bo'lib qolishadi.

«DIALEKTOLOGIK AMALIYOT»GA BORISH UCHUN «TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI»

1. Dala sharoitida malakaviy amaliyot olib boruvchi talabalar O'zMU texnika xavfsizligi bo'yicha ishlab chiqilgan yo'riqnomaga amal qilishi shart.
2. Ko'chada yurganda yo'l transport qoidalariga amal qilish.
3. Elektr jihozlariga so'roqsiz, ruxsatsiz tegmaslik.
4. So'roqsiz, ruxsatsiz begonalarining mashinalariga minmaslik.
5. Elektr asboblarni ruxsatsiz ishlatmaslik.
6. Gaz asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish .
7. Taqiqlangan joylarda cho'milmaslik.
8. Ariqdagi suvdan foydalanmaslik.
9. Taqiqlangan joylarda yurmaslik.
10. Begona odamlar bilan suhbatlashmaslik.
11. Sheva vakillari nutqi o'rganilayotgan hududdan ruxsatsiz holatda yakka o'zi chiqib ketmaslik.
12. Jamoat tartibini buzmaslik.
13. Keskir asboblardan noo'rin foydalanmaslik.
14. O'z shevasining materiallarini yig'ib olishda yana boshqa texnik xavfsizlik talablariga amal qilishlari lozim.

«DIALEKTOLOGIK AMALIYOT»NING BAJARILISHI TO'G'RISIDA TALABA(LAR)NING HISOBOT

Talabalarining malakaviy amaliyotning yakuni to'g'risidagi ushbu hisobotida quyidagilar o'z ifodasini topishi shart:

1. Sheva materiallari yig'ilgan hudud va amaliyotning muddati to'g'risida ma'lumotni yozish kerak.
2. Shu sheva o'zbek tilining qaysi lahja yohud shevalar guruhiga mansub ekanligi.
3. Shevada ro'y bergan ayrim fonetik va leksik o'zgarishlar to'g'risida munosabat bildirib o'tish.
4. Sheva vakillari yashayotgan qishloq, ovullarning tuman hamda shahar markazidan qanchalik uzoqligi.
5. Bu hududda o'rganilayotgan sheva vakillari bilan yana qanday millat, elat vakillari istiqomat qilishlari.
6. Mazkur shevaning shu guruh shevalaridan o'zigagina xos xususiyatlari.

7. Sheva vakillari nutqida boshqa tilning ta'siri bor yoki yo'qligini misollarda ko'rsatish.

8. Bu sheva oldin biror bir olim tomonidan o'rganilganmi, yo'qmi?

9. Sheva agar olimlar tomonidan oldin o'rganilgan bo'lsa, uning qaysi xususiyatlari e'tibordan chetda qolganligi haqida gapiring.

10. Amaliyot davrida shevaga xos xarakterli xususiyatlar haqida tug'ilgan fikr-mulohazalar yozib boriladi.

11. Bu amaliyot vaqtida paydo bo'lgan turli xil muammolar ham ko'rsatiladi.

12. Ayni shu amaliyotni tashkil etish hamda uni o'tkazish yuzasidan bildiriladigan takliflar iloji bo'lsa yozib olinadi.

13. Mazkur amaliyotni tashkil etish hamda uni o'tkazish yuzasidan bildiriladigan istaklar ham iloji bo'lsa yozib olinsa, yaxshi bo'ladi.

14. Fayl papkada to'plangan sheva materiallari yig'iladi va tartib bilan joylashtiriladi.

15. Ushbu amaliyotning kundaligi alohida daftarda amaliyot kunlari asosida to'ldirib boriladi.

16. Sheva vakillari bilan birga tushilgan 2–3 ta rasm izohi bilan fayl papkada bo'lishi kerak (mana shu 15 ta hujjat amaliyotning hisoboti sanaladi).

17. Talaba amaliyot hisobotini belgilangan vaqtda amaliyot rahbarlariga etkazish shart, aks holda bahorgi imtihonlardan qarzdor sifatida qoladi va keyingi muddatda qayta topshiradi.

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI FANIDAN O'TKAZILADIGAN «DIALEKTOLOGIK AMALIYOT»DAN BAHOLASH MEZONLARI

1) 86–100 ball uchun talabaning malakaviy amaliyoti quyidagi talablarga javob berishi lozim

– talaba rejalashtirilgan va ko'zda tutilgan dasturdagi savollarga javob topib, yoza olsa va amaliyotda faol qatnashsa;

– talaba «O'zbek dialektologiyasi» fanidan o'z vaqtida mustaqil ta'limda o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va o'zlashtirish kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarni amaliyot vaqtida qo'llay olsa;

– talaba shevashunoslik bo'yicha ko'zda tutilgan barcha amaliy savollarga o'rganilayotgan sheva materiallaridan kelib chiqib, batafsil, to'liq javob yozgan bo'lsa;

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan malakaviy amaliyot o‘tashda bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriqlarni bajarishda shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa.

2) 71–85 ball uchun talabani malakaviy amaliyoti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– talaba rejalashtirilgan va ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyot topshiriqlarini bu amaliyot vaqtida amalda bajarsa;

– talaba amaliyot vaqtida transkripsiya, transletirasiya va shevalar tasnifi bo‘yicha nazorat savolarining ayrimlariga etarlicha javob topa olgan bo‘lsa;

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan o‘z vaqtida mustaqil ta‘limda o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan adabiyotlardan olgan bilim va malakalarini amaliyotda qo‘llay olsa;

– talaba ko‘zda tutilgan amaliyot dasturidagi savollarga etarlicha javob yoza olsa;

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» faniga tegishli mustaqil o‘qish uchun berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishdagi bilim va ko‘nikmalarini amaliyot vaqtida qo‘llashda faol ishtirok etsa.

3) 55–70 ball uchun talabani malakaviy amaliyoti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– talaba rejalashtirilgan va ko‘zda tutilgan amaliyot dasturini bajarishda kamroq qatnashib, berilgan topshiriqlarning ayrimlariga qisman javob bersa;

– talaba o‘z vaqtida «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan mustaqil ta‘limda o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan adabiyotlarni qisman o‘zlashtirib, amaliyotda ulardan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni qisman qo‘llab, yozma javob yozsa;

– talaba ushbu fan bo‘yicha ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyot dasturidagi barcha savollarning ayrimlarigagina javob yoza olsa;

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan berilgan amaliyot dasturi topshiriqlarini bajarishda va amaliyot davrida malakaviy amaliyotning dastur savollariga javob yozish (berish)da etarlicha ishtirok etmasa;

– shevashunoslik yuzasidan ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyot dasturi savollarining to‘rtidan uch qismiga o‘z vaqtida javob topa olmasa;

4) 0–54 ball uchun talabani malakaviy amaliyoti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– talaba rejalashtirilgan va ko‘zda tutilgan amaliyotning 4 tadan uch qismiga qatnashib, malakaviy amaliyot dasturi savollarining ko‘p qismiga javob bera olmasa;

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan o‘z vaqtida mustaqil ta‘limda o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan adabiyotlardagi bilim hamda ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtira olmagan bo‘lsa;

– talaba mazkur fandan ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyotning savollariga qoniqarsiz javob bersa (yozgan bo‘lsa);

– talaba «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan malakaviy amaliyot savollarini o‘zlashtirishda mavjud savollarga javob yozishda qoniqarsiz ishtirok etsa;

– talaba shevashunoslik yuzasidan ko‘zda tutilgan malakaviy amaliyot barcha topshiriqlarining to‘rtidan uch qismi savollariga o‘z vaqtida javob yoza olmasa.

«Dialektologik amaliyot»ga qatnashgan talabalarning bahosini chiqarishda JN, ON turlarini o‘tkazish imkoniyati yo‘qligi uchun amaliyot so‘ngida tayyorlangan ushbu amaliyotga tegishli materiallari asosida bitta yakuniy baho 100 ball asosida chiqariladi:

0–55 ball olganlar «qoniqarsiz» baholanadi.

56–70 ball olganlarga «qoniqarli» baho qo‘yiladi.

71–85 ball olganlar «yaxshi» baholanadi.

86–100 ball olganlarga «a‘lo» baho qo‘yiladi.

Talabalar bu amaliyot vaqtida «O‘zbek dialektologiyasi» fanidan o‘rgangan amaliy va nazariy ko‘nikmalarni amalda qo‘llashib, o‘zlarining shevalari to‘g‘risida zarur ma‘lumotlarni yig‘ishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Abdullayev F.A.* Dialektal lug'at tuzish prinsiplari haqida // O'TA .T., 1966. 2-son.
2. *Abdumajidov G.A., Shohnazarov T.T.* O'zbekistonning Davlat tili haqidagi qonunga sharhlar. Toshkent, O'zbekiston, 1990.
3. *Abdurahmonov D.* O'zbek shevalari morfologiyasining o'rganilishi // O'zbek shevalari morfologiyasi.
4. *Aliyev A.Yu., Nazarov K.N.* O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 1976.
5. *Aliyev A.* O'zbek dialektologiyasidan metodik ko'rsatma. – T.: 1980.
6. *Ishayev A.* O'zbek dialektal leksikografiyasi. – T.: Fan, 1990.
7. *Ishayev A.* Shevalar lug'atiga kiritiladigan so'zlar // O'zbek tili va adabiyoti. 1988 yil. 2-soni.
8. *Mirzayev M.* Dialektal so'zlar // O'zbek shevalari leksikasi. – T.: 1966.
9. *Reshetov V.V.* O'zbek dialektlarini monografik o'rganish // O'TA. 1960. 1-soni.
10. *Enazarov T.* O'zbek dialektologiyasi fanidan amaliyot. – T.: Universitet, 1996.
11. *Karimov S.* Oldimizda ulkan vazifalar turibdi yoxud o'zbek toponimikasining bugungi ahvoli haqida ba'zi bir mulohazalar // Ma'rifat gazetasi. 2010 yilning 10-yanvar. 11-sahifasi.
12. *Shoimova N.* Shevalar lug'atini yaratish – davr talabi // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami). T., 2008. 202-204-betlar.
13. *G'ulomov Yo.G'* O'zbek xalq shevalarini lingvogeografik tekshirish // O'zbek tilshunosligining aktual masalalari. – T.: 1987.
14. O'zbek shevalari leksikasidan materiallar to'plash uchun so'roqlik. – T.: Fan, 1989.
15. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – T.: Fan, 1971.

QISQARTMALAR

- DL* – Dialektal lug'at.
T. – Toshkent.
M. – Moskva.
S. – Samarqand.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
"Dialektologik amaliyot" nomli malakaviy amaliyotning dasturi.....	13
O'zbek sheva va lahjalariga oid materiallarni amaliy o'rganish va to'plash	15
Sheva vakil(lar)i bilan suhbatlashiladigan mavzularning taxminiy nomlari va ularga oid savollar.....	20
Transkripsiya va sheva materiallarini transkripsiyada yozib olish ko'nikmalari to'g'risida.....	22
Transkripsiya.....	22
Fonetik transkripsiya.....	24
Unlilar.....	26
Undoshlar.....	27
Shevalar fonetikasi bo'yicha materiallar to'plash.....	28
Dialektal morfologiya bo'yicha materiallar yig'ish.....	32
Shevalardan nom (toponim)larni yig'ish.....	45
Yer ostidagi toponimlarni yig'ish bo'yicha savollar.....	47
Suv inshootlarining nomlarini yig'ish uchun savollar.....	48
Oykonimlarni yig'ish uchun savollar.....	49
Agroonimlarni to'plash bo'yicha savollar.....	50
Paragogenimlarni yig'ish bo'yicha savollar.....	54
Tevarak-atrofdagi joy nomlari haqida fikr-mulohazalar.....	56
DLga kiritilmaydigan so'zlar.....	59
Dialektologik amaliyotini o'tkazishning kalendar rejasi.....	62
"Dialektologik amaliyot" ga borish uchun "Texnika xavfsizligi qoidalari".....	64
"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotining bajarilishi to'g'risida hisobot.....	64
O'zbek dialektologiyasi fanidan o'tkaziladigan "Dialektologik amaliyot" dan baholash mezonlari.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68

Qaydlar uchun

T.J. Enazarov X.T. Abdullayev

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI
FAKULTETI**

*(«Dialektologik amaliyot» o‘tkazish
uchun o‘quv qo‘llanma)*

*Muharrir Zarifjon Xidirov
Badiiy muharrir Alisher Ahmedov
Musahhah Feruza Mirzaahmedova*

Litsenziya raqami № 275. Bosishga ruxsat etildi 2018-yil 14-fevral ruxsat etildi.
Bichimi 60×84¹/₁₆. Ofset qog‘ozi. Times TAD garniturasini. Shartli bosma tabog‘i.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 168.